

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKUL`TETI

DEFEKTOLOGIYA KAFEDRASI

**“Himoya qilishga ruxsat beraman”
“Pedagogika-psixologiya» dekani
dots R.Abdurasulov
“ ” _____ 2014 y.**

**5141800 – Defektologiya yo`nalishi bo`yicha bakalavr
darajasini olish uchun**

**«AQLI ZAIF BOLALAR NUTQINING O`ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI VA ULAR BILAN OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK
ISH METODLARI»
mavzusida bajargan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Bajaruvchi: Abjalova Sojida
“Defekrologiya” yo`nalishi
IV kurs bitiruvchisi, kunduzgi bo`lim
talabasi
Ilmiy rahbar: Tib.f.n. Arifxodjaev G**

**Ishni himoyaga tavsiya etaman Tib.f.n. Arifxodjaev G _____
(imzo)**

BMI “Defektologiya” kafedrasi yig`ilishining qarori bilan (Qaror
№ __, _____ 201 y) himoyaga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri
**Tib.f.n. Arifxodjaev G` _____
(imzo)**

Jizzax – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-7
I. BOB. AQLI ZAIF BOLALAR NUTQINING RIVOJLANISHNG O`ZIGA XOSLIGI	
1.1. Ontogenezda bolalar nutqining rivojlanishi va muammoni maxsus adabiyotlarda o`rganilish holati.....	8-12
1.2. Aqli zaif bolalar nutqining o`ziga xos xususiyatlari.....	3-26
1.3. Aqli zaif bolalarni bog`langan nutqini o`rganish metodikasi.....	27-29
II. BOB. AQLI ZAIF BOLALARNING BOG`LANGAN NUTQINI RIVOJLANTIRISH BO`YICHA OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK - KORREKSION ISHLAR MAZMUNI.	
2.1. Aqli zaif bolalarni bog`langan nutqini o`rganish metodikasi natijalarining tahlili.....	30-35
2.2. Aqli zaif bolalarni bog`langan nutqini rivojlantirishda logopedik - korreksion ishlarning bosqichlari va omillari.....	35-39
2.3. Aqli zaif bolalarni bog`langan nutqini rivojlantirishning samarali yo`llari.....	40-44
XULOSA.....	45-46
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI	47-48

Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika-psixologiya fakul'teti defektologiya yo`nalishi IV-bosqich talabasi Abjalova Sojidaning "Aqli zaif bolalar nutqining o`ziga xos xususiyatlari va ular bilan olib boriladigan logopedik ish metodlari" nomli bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

X U L O S A S I

Abjalova Sojidaning tadqiqot ishini dolzarbligi aqli zaif bolalarda uchraydigan Aqli zaif bolalar nutqining o`ziga xos xususiyatlari va ular bilan olib boriladigan logopedik ish metodlarini topishga qaratilgan. Hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri maktabgacha ta'lim yoshidagi aqli zaif bolalar so'z boyligini oshirish, ulardagi kamchiliklarini bartaraf etish uchun korreksion – pedagogik yordamni to'g'ri tashkil qilishdir. Bitiruv malakaviy ishining muammoli tomoni qilib, Aqli zaif bolalar bog'langan nutqini rivojlantirishning mazmuni, maxsus usul va vositalarini o'z ichiga qamrab oluvchi korreksion – rivojlantiruvchi ta'lim tizimi asosida samarali amalga oshirish haqidagi fikr mulohazalar va ana shu muammoni hal etishga, asoslab berishga urinishlar ko'zga tashlangan.

Muallif qo'yilgan maqsadga erishishda nutq buzilishlarini oldini olish, hamda aniqlash va tuzatishning ilmiy asoslangan metodlari va amaliy tomondan nutq buzilishini oldini olish, aniqlash va bartaraf etishga asoslanib, hamda maxsus maktab va maktabgacha tarbiya muasasalarida logopedik ish faoliyatini to'g'ri tashkillashtirish asosida ta'limiy, tarbiyaviy va korreksion faoliyatni yuritishga e'tiborni qaratgan. Ishda o'rganilayotgan muammoning pedagogik asoslari bayon etilgan. Nazariy qism mazmunli taqdim etilgan. Tadqiqotchi aqli zaif bolalar bilan imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yondoshish va logopedik ta'sir tamoyillarini to'g'ri qo'llay olish jarayonini, shu bilan birga turli metodlar asosida logopedik mashg'ulotni tashkil etish maxsus maktabgacha tarbiya bolalarini keng qolipda korreksion ish olib borishning asosiy omili ekanini asoslab berishga harakat qilgan. Yuqoridagi fikrlar asosida tajribalar olib borilgan. Abjalova Sojida tomonidan bajarilgan bitiruv malakaviy ishi xususan ishlab chiqilgan va o'rganilgan nazariy qism maktabgacha tarbiya va maktab ta'limida logoped-defektologlar va pedagoglar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Ish bitiruv malakaviy ishiga qo'yilgan barcha talablarga javob beradi.

Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika-psixologiya fakul'teti defektologiya yo'nalishi IV-bosqich talabasi Abjalova Sojidaning "Aqli zaif bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari va ular bilan olib boriladigan logopedik ish metodlari" nomli bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim nutq nuqsonlari kuzatilib, ularni bartaraf etish bo'yicha logopedik ishlar tashkil etilgan.

Maxsus ehtiyojli bolalar ta'lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormokda. Maxsus ta'lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim tizimi sifatida rivojlangan. Talaba Abjalova Sojida aqli zaif bolalarning bog'langan nutq hususiyatlarini o'rganish va mavjud kamchiliklarni turli usullar asosida bartaraf etish bo'yicha maxsus tadqiqot o'tkazishni dolzarb masala deb bilgan.

Aqli zaif bolalar nutqini o'ziga xosxususiyati va nutq kamchiliklarini bartaraf etishningda samarali usullardan foydalanishning ahamiyati katta rol o'ynaydi. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri bo'lib, talaba Abjalova Sojida ana shu mavzuning dolzarbligini asoslab berish uchun ishning maqsad va vazifalarini belgilagan. Ishlab chiqilgan maqsad vazifalar mavzuni o'rganishga qaratilgan.

Tadqiqot ishi ikki bob, 6 ta paragraf, xulosa va tavsiyalardan iborat bo'lib, reja mavzuni to'liq ochib berishga qaratilgandir.

Tadqiqotning birinchi bobi Aqli zaif bolalar nutqining rivojlanishig o'ziga xosligi deb nomlanib bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklari, ular kelib chiqish sabablari, nutq nutqining rivojlanishi va muammoni maxsus adabiyotlarda o'rganilish holati, Aqli zaif bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari, aqli zaif bolalarni bog'langan nutqini o'rganish metodikasi yoritilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi Aqli zaif bolalarning bog'langan nutqini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan logopedik - korreksion ishlar mazmuni deb nomlanib aqli zaif bolalarni bog'langan nutqini o'rganish metodikasi natijalarining tahlili, Aqli zaif bolalarni bog'langan nutqini rivojlantirishda logopedik - korreksion ishlarning bosqichlari va omillari, Aqli zaif bolalarni bog'langan nutqini rivojlantirishning samarali yo'llari usullari nutqni faollashtirishda turli metodlardan foydalanishning ilmiy-amaliy ahamiyati keng yoritilgan.

Olib borilgan tajriba-sinov asosida bitiruv malakaviy ishi xulosalangan va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyalar hozirda ta'lim jarayoni bilan shug'ullanayotgan o'qituvchilar uchun muhim amaliy ahamiyatga egadir.

Taqrizchi:

Abdulla Qodiriy nomli Jizzax Davlat pedagogika instituti Pedagogika-psixologiya fakul'teti defektologiya yo`nalishi IV-bosqich talabasi Abjalova Sojidaning "Aqli zaif bolalar nutqining o`ziga xos xususiyatlari va ular bilan olib boriladigan logopedik ish metodlari" nomli bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shunday bog'langan nutqga ega bo'lishi kerakki, toki u bolaga tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish, maktabda samarali bilim olish, tashqaridan kelayotgan axborotni tushunish imkonini bersin. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bog'langan nutqini rivojlantirishning dolzarb vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Ana shunday dolzarb masala talaba Abjalova Sojidaning mavzuida aks etgan bo'lib, bitiruv malakaviy ishining kirish qismida, ishning maqsad, vazifalari belgilangan. Qo'yilgan maqsad asosida ishning nazariy qismida Aqli zaif bolalar bog'langan nutqini rivojlantirishning mazmuni maxsus usul va vositalarini o'z ichiga qamrab oluvchi korreksion – rivojlantiruvchi ta'lim tizimi asosida samarali amalga oshirish mumkinligi yoritib berilgan. Tadqiqot ishi ikki bob, 6 ta paragraf, tajriba sinov, xulosa va tavsiyalardan iborat bo'lib, reja mavzuni to'liq ochib berishga qaratilgandir.

Tadqiqotning birinchi bobi Aqli zaif bolalar nutqining rivojlanishning o`ziga xosligi deb nomlanib bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklari, ular kelib chiqish sabablari, nutq nutqining rivojlanishi va muammoni maxsus adabiyotlarda o'rganilish holati, Aqli zaif bolalar nutqining o`ziga xos xususiyatlari, aqli zaif bolalarni bog'langan nutqini o'rganish metodikasi yoritilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi Aqli zaif bolalarning bog'langan nutqini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan logopedik - korreksion ishlar mazmuni deb nomlanib aqli zaif bolalarni bog'langan nutqini o'rganish metodikasi natijalarining tahlili, Aqli zaif bolalarni bog'langan nutqini rivojlantirishda logopedik - korreksion ishlarning bosqichlari va omillari, Aqli zaif bolalarni bog'langan nutqini rivojlantirishning samarali usullari nutqni faollashtirishda turli metodlardan foydalanish zarurligini asoslab bergan.

Bitiruv malakaviy ish mustaqil tayyorlangan, xulosalangan va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo`lib bitiruv malakaviy ishiga qo`yilgan talablarga to`liq javob beradi va bitiruv malakaviy ishnini YADA huzurida himoyaga tavsiya qilish mumkin.

Taqrizchi:

o`qit. Q.Nazarqosimov

Defektologiya kafedrası

KIRISH

Jamiyatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o`zgarishlar yuz berayotgan bir vaqtda vatan ravnaqini ko`zlash maqsadida asosiy e`tibor yoshlarning aqliy, ahloqiy, jismoniy barkamoligiga demak, har tomonlama yetuk, sog`lom avlodni o`stirishga qaratilyapti.

Yurtboshimiz aytganlaridek, “Kelajak avlod haqida qayg`urish, sog`lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilishi bizning milliy xususiyatimizdir. Farzandlari sog`lom yurt, qudratli bo`ladi, qudratli yurtning farzandlari sog`lom bo`ladi.” Sog`lom avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirish g`oyatda ma`suliyatli vazifa, shu bilan birga insonparvar siyosat natijasidir.

Istiqlol yillarida ta`lim sohasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo`nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar ko`lami va salmog`I bunga misoldir. Qisqa fursat ichida ta`lim rivoji yo`lida qo`lga kiritilayotgan yutuqlar, keng ko`lami o`zgarishlar zamirida hukumatimizning mazkur sohaga nisbatan yuksak e`tibori mujassamdir. Ta`limni isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan xukumat qarorlarining negizida barkamol avlod tarbiyasi asosiy vazifa sifatida qaralmoqda. Bu narsa o`z navbatida milliy g`oya tarbiyasining muhim qismi hisoblanadi.

Umumiy dunyoqarashni belgilab beruvchi faol hayotiy pozitsiya ko`nikmasi yetarli darajada shakllantirilsa, mustaqil davlatning talab va ehtiyojlariga mos keladigan komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish muammosi to`liq hal bo`lmaydi. Milliy istiqlol g`oyalari va tamoyillariga asoslangan holda jamiyatimizning mustaqillik yillarida kuzatilayotgan taraqqiyot tajribasi davomida,

ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismi sifatida barcha sohalar qatorida ta'lim – tarbiya jarayoni va uning mazmuni ham tubdan o'zgaradi.

Respublikamiz hukumati tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy islohatlarda yosh avlodning tarbiyasi, xususan uning oilaviy tarbiyasiga munosib omil sifatida qaraladi.

Jumladan, prezidentimiz I.A.Karimov oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida yosh avlodning ta'lim – tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab: <<Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila... kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'I ekanini tan olishimiz darkor>>, <<...farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini angelaydi, his etadi>>, - degan fikrlarni bildiradi. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 2012 yilni mamlakatimizda “Mustahkam oila yili”, 2013 yillarga yuqoridagidek nom berishimiz munosabati bilan davlat idoralari, nodavlat va ijtimoiy tashkilotlar, hayriya jamg'armalari bilan birgalikda ishlab chiqilib qabul qilinadigan dasturda ayni shunday ezgu tushuncha, orzu – intilishlarimiz o'z ifodasini topishi lozim. Bu bilan mamlakatimizda oila institutini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha yangidan qabul qilinadigan qonun, qoida va normalarda bugungi va ertangi kunimizning talablari aks etishi, amaldagi qonun hujjatlariga zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bu masalaga jamiyatimizning e'tiborini yanada kuchaytirish ko'zda tutilmoqda.

Sog'lom avlod tarbiyasi juda murakkab jarayon, xuddi shu bois inson har bir oila jamiyatdan jiddiy e'tibor va uzluksiz mehnat qilishni talab qiladi.

Prezidentimiz o'z fikrini davom ettirar ekan. “Hech shubha yo'q, sog'lom avlod orzusi ajdodlarimizdan bizgacha o'tib kelayotgan, qon – qonimizga singib ketgan muqaddas intilishdir. Agar ota – bobolarimizning turmush tarziga tafakkuriga nazar solsak, ular nasl – nasab, yeti pushtning tozaligiga, avlodning sog'lig'iga juda katta e'tibor berganini ko'ramiz. Sog'lom bolaning tug'ilishi eng avvalo onaning sog'ligiga bog'liq” – deydi.

Darhaqiqat sog'om bola sog'lom onadan, sog'lom oilada tug'iladi. Shaxs ijtimoiy hayotning shaxslararo munosabati mahsum ekan, u albatta o'zini o'rab turgan muhitning ta'sirida rivojlanadi. Nogiron bolalarni tarbiyalash va o'qitish masalalari xalq ta'limi tizimida jiddiy o'rin egallaydi.

Sog'lom avlodni tarbiyalash – buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish demakdir. Biz tarixan qisqa vaqt ichida boshqa sohalarda bo'lgani kabi bu boradagi maqsad va burchimizni yaxshi anglab oldik.

Sog'lom avlod orzusi ming yillar davomida ajdodlarimizdan o'tib kelayotgan oilamiz, hayotimiz, intilishlarimiz mohiyati asosiga aylanib ketgan millatimizga xos ezgu qadriyatlarimizdan biridir.

Bola komil inson bo'lib shakllanishida nutqning mukammal rivojlanishining ahamiyati katta.

Ravon va yaxshi rivojlangan nutq shaxsning to'laqonli muloqoti va rivojlanishining vositasi bo'lib hizmat qiladi. Lug'at boyligi (leksika) til tizimining muhim qismi sifatida ta'limiy va amaliy ahamiyatga ega. Nutqning lug'at zahirasining shakllanishidagi kamchiliklari mavjud bo'lgan bolaning nutqini yaxshi rivojlangan deb bo'lmaydi. Nutq nuqsonlarini korreksiyalash, shu jumladan lug'at zahirasini boyitish kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning zarur sharti hisoblanadi.

Bolalar nutqini shakllantirish masalasi hozirgi zamon logopediyasida muhim o'rin egallaydi, turli nutq nuqsonlarining holati va uni rivojlantirish metodikasi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Aqli zaif bolalarni o'rganish va ularni tarbiyalash, o'qish bo'yicha to'langan tajribalar ular bilan korreksiyalash ishlarining muvaffaqiyatli bo'lish imkoniyati hamda zarur bo'lganda ularni keyinchalik ham o'rganish, maxsus metodikalarni takomillashtirish sohasida hozirgacha bir qator hal etilmagan muammolar mavjud.

Ma'lumki bolalarda nutqning barcha tomonlarini rivojlantirish va kamchiliklarini korreksiyalashda eng samarali maktabgacha yosh hisoblanadi. Aqli zaif bolalarning maktabgacha ta'lim muassasasining dasturini o'zgartirishdagi

qiyinchiliklari nutqning yetarli darajada rivojlanmaganligi shu jumladan lug'atning hajmi va sifati bilan bog'liq bo'ladi.

Aqli zaif nutqining shakllanishi bolaning bilish faoliyatini rivojlanishida katta ahamiyatga ega, chunki so'z uning ma'nosi faqatgina nutqning emas, balki tafakkurning ham vositasidir.

Hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri maktabgacha ta'lim yoshidagi aqli zaif bolalar so'z boyligini oshirish, ulardagi kamchiliklarini bartaraf etish uchun korreksion – pedagogik yordamni to'g'ri tashkil qilishdir.

Aqli zaif bolalar ta'lim – tarbiyasi muammolari yuzasidan bir qator horij olimlaridan J.I.Shif, G.M.Dul'nev, B.I.Pinskiy, S.Y.Rubinshteyn kabi olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar. O'zbekistonda oligofrenopsixologiyaning nazariy va amaliy rivojlanishiga bir qancha pedagog, psixologlar katta xissa qo'shdilar, ulardan G'.B.Shoumarov, K.Q.Mamedov va G.Berdiyevlar maxsus psixologiya fanining rivojlanishiga katta xissa qo'shib kelmoqdalar.

Aqli zaif bolalar nutqini shakllantirish va rivojlantirish muammosi yetarlicha o'rganilmagan bo'lishi bilan birgalikda ushbu muammoga oid ilmiy – metodik qo'llanmalarning yetishmasligi muammosini bartaraf etish zarurati o'z yechimini kutmoqda.

Ma'lumki, aqli zaif bolalar tomonidan bilish etalonlarni mustaqil egallash jarayonini qiyinlashtiradi. Shuning uchun maxsus tashkil etilgan logopedik ta'sir nutqiy va nutqiy bo'lmagan funksiyalarni rivojlantirishga qaratilsa, aqli zaif bolalarda bog'langan nutqini to'laqonli shakllantirish imkonini beradi.

Aqli zaif bolalar bog'langan nutqini rivojlantirishning mazmuni, maxsus usul va vositalarini o'z ichiga qamrab oluvchi korreksion – rivojlantiruvchi ta'lim tizimi asosida samarali amalga oshirish mumkin. Aqli zaif maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarini yosh, individual o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib bog'langan nutqini rivojlantirishga majmuaviy (kompleks) yondashuv maxsus maktabgacha ta'lim muassasi sharoitida korreksion – pedagogik jarayon samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shuning uchun biz aqli zaif bolalarning bog'langan nutq hususiyatlarini o'rganish va mavjud kamchiliklarni turli usullar asosida bartaraf etish bo'yicha maxsus tadqiqot o'tkazishni dolzarb masala deb bildik. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini "Aqli zaif bolalarning bog'langan nutqini rivojlantirish bo'yicha korreksion ish", deb nomladik.

Tadqiqotning maqsadi – Aqli zaif bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari va ular bilan olib boriladigan logopedik ish metodlarini o'rganish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Ilmiy adabiyotlarda muammoning bayon etilishi holatini o'rganish.
2. Aqli zaif bolalar nutqini rivojlantirishning holatini o'rganish.
3. Aqli zaif bolalarni bog'langan nutqini rivojlantirishning samarali yo'llari tizimini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti: Aqli zaif bolalar (Debil)

Tadqiqotning predmeti: Aqli zaif bolalar nutqini rivojlantirish jarayoni va ular bilan olib boriladigan logopedik ish metodlarini o'rganish.

Tadqiqotning metodlari:

- mavzuga doir ilmiy – pedagogik, psixologik adabiyotlarni o'rganish;
- bolalarni mashg'ulotlarda va o'yin jarayonlarida kuzatish;
- logoped hamda tarbiyachilar bilan suxbatlashish;
- aniqlangan ma'lumotlarning natijalarini son va sifat jixatdan taxlil qilish.

Tadqiqotning metodologik asosi:

O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi o'zbekiston respublikasi <<Ta'lim to'g'risida>>gi qonun, <<Kadrlar tayyorlash>> milliy dasturi, <<Maxsus ta'lim konsepsiyasi>>, xukumatimizning Xalq ta'limi hamda O'zbekiston respublikasining Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirliklarining meyoriy hujjatlari,

ilmiy pedagogika asosi sifatida dialektik bilish nazariyasining qonuniyatlari, umuminsoniy qadriyatlar, o'zbek xalq pedagogikasi tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. AQLI ZAIF BOLALAR NUTQINING RIVOJLANISHINING O`ZIGA XOSLIGI.

1.1. Ontogenezda bolalar nutqining rivojlanishi va muammoni maxsus adabiyotlarda o'rganilish holati.

Nutq tug'ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib boradi. Bola nutq apparatining markaziy asab tizimi va pereferik a'zolari tug'ma to'liq yetilgan bo'lmay, balki umumiy somatic, jinsiy, asab – ruxiy jarayonlarning rivojlanishi bilan hamohang holda shakllanadi. Nutq buzilishlarini o'rganish, tushunish uchun bola nutqining normal rivojlanishi yo'lini, bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini, nutqining muvaffaqiyatli shakllanishida katta rol o'ynovchi sharoitni bilish lozim. Bundan tashqari bola nutqining rivojlanish davrlarini aniq bilish zarur. Bu esa nutqning rivojlanishi jarayonidagi u yoki bu kamchiliklarni o'z vaqtida bilish va aniqlash uchun kerak bo'ladi.

So'z – tilning nominativ birligi, predmetlarni va ularning belgilarini harakatlarni nomlaydi. Leksika (grekcha lexicos – “lug'atga oid, so'z orqali ifodalangan” – tilning tarkibiga kiruvchi so'zlarning majmui. Lug'at boyligi “leksika” atamasi bilan nomlanadi.

Lug'at – bu predmetlarni, hodisalarni, harakat va belgilarni ifodalovchi so'z (nutqning asosiy birligi).

“Lug’atning meyoriyligi shundan iboratki, unda adabiy tilning imlo, talaffuz soʻz yasash va uni meyorlari tavsiya etiladi. ...Lekin meyorini payqash, meyoriy holatlarni ajratib olish oson ish emas. Shuni ham alohida qayd etib oʻtish kerakki, meyoriy lugʻat adabiy til meyorlarini belgilashga intilar ekan, ijtimoiy taraqqiyot bilan bogʻliq holda oʻzgarib rivojlanib turadi”

Hozirgi kunda koʻpchilik tadqiqotchilarning ishlarida nutqning leksik komponentlari xususiyatlarining taxlili yetarli darajada aks ettirilgan. O.V.Pravdina keltirilgan maʼlumotlarga koʻra, ontogenezdada bolalarning lugʻati sifat va miqdor jihatdan oʻzgarishlari juda tez rivojlanadi.

Lugʻatning miqdoriy jihatdan oʻzgarishlarining rivojlanishi quyidagi oʻrtacha olingan raqamlar bilan tavsiflanadi: bola hayotining birinchi yilida bir nechta soʻzlar, bolaning ikki yoshiga kelib 200 – 300 ta soʻz, uch yoshda 1500 – 2000 ta soʻzni tashkil etadi.

Bolalar lugʻatini rivojlanishi uning yashash sharoiti va tarbiyasi bilan bogʻliq boʻlib shunga koʻra yuqorida keltirilgan oʻrtacha raqamlar maʼlum maʼnoda oʻzgarishlar boʻlishi mumkin.

Bolalar lugʻatining sifat jihatdan oʻzgarishlari quyidagi ikki yoʻnalish asosida amalga oshiriladi, yaʼni a) mazmuniga koʻra bola tomonidan qoʻllaniladigan soʻz va tushunchalarni soʻz maʼnosining (semantik) mazmuniga oid differentsiyalash va boyitish; b) shakliga koʻra soʻzning ritm – ohang, tovush boʻgʻin tarkibini murakkablashib boruvchi ketma – ketlikda egallash.

Bolalar lugʻatining rivojlanishi nutqni egallanishi quyidagi ketma – ketlikda amalga oshadi (soʻzning maʼno mazmunini differentsiyalash) otlar odatdagi birinchi soʻzlar, feʼllar otlar bilan deyarli bir vaqtda paydo boʻladi, ravishlar esa nisbatan kech shakllanadi. Bolalar tomonidan olmoshlarning ayrim shakllari esa juda erta egallanadi va ularning xotirasida turgʻun qoladi, son tushunchasi esa kech shakllanadi va uzoq vaqt davomida oʻzlahtiriladi. Ignatyeva S.A, Blinkov Y.A bolalar nutqini ontogenezdada rivojlanishini oʻrganib uni 4 bosqichini ajratib koʻrsatadilar.

Tadqiqotchilar maktabgacha ta'lim davrda bola tomonidan qo'llaniladigan so'zlarning miqdoriga oid turli ma'lumotlarni ko'rsatib o'tadilar va bu holatni bola nutqining rivojlanish tempining individualligi bilan izohlaydilar. Masalan YE.A.Arkinning keltirgan ma'lumotlariga ko'ra bolalar lug'atining o'sishi quyidagi miqdoriy xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

1 yosh – 9ta so'z;

1yoshu 6 oy – 29ta so'z;

2yosh – 300ta so'z;

3yoshu 6 oy – 110ta so'z;

4yosh – 1926ta so'z.

A.Shterning ma'lumotlariga ko'ra bolaning lug'atini rivojlanishi quyidagicha amalga oshadi:

1,5 yoshda – 100 so'z, 2yoshda – 200 – 400 so'z, 3 yoshda – 1000 – 1100 so'z, 4 yoshda – 1600 so'z, 5 yoshda – 2200 so'z.

A.N.Gvozdeva to'rt yoshli bolalar lug'atining holatiga oid quyidagi ma'lumotlarni keltiradi.

So'z turkumlari	lug'atdagi %miqdori
Ega	50,2%
Fe'l	27,4%
Sifat	11,8%
Ravish	5,8%
Son	1,9%

YE.A.Arkinning ma'lumotlariga ko'ra bola lug'atining miqdor jihatdan o'sib borishi quyidagicha tavsiflanadi: 1 yosh – 9ta so'z, 1yosh 6oy – 39ta so'z, 2 yosh – 300ta so'z, 3 yosh 6 oy – 1110ta so'z, 4 yosh – 1926ta so'z. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning lug'atini milliy til modeli sifatida ko'rib chiqishi mumkin, chunki bu davrga kelib bola ona tilining asosiy modellarini egallagan bo'ladi. Ushbu davrda lug'atning asosi shakllanadi va u keyinchalik deyarli o'zgarmaydi. Bola lug'atini miqdor jihatdan boyib borishiga qaramay, uning asosi o'zgarmaydi (Gvozdev A.N).

A.N.Gvozdeva, YE.A.Arkinning bolalar nutqini rivojlanishiga oid jadvalida aks ettirilishicha, 4 yoshli bolaning lug'atida (lug'at hajmini o'rtacha 598 – 2346ta so'z) otlar 50.2%, fe'llar 27.4%, sifatlar 11.8%, ravishlar 5.8%, son 1.9%, bog'lovchilar 1.2%, ko'makchi 0.8%, undov va yuklama 0.9%da qo'llaniladi. Muallif bolaning nutqiy rivojlanishini 4 davrga bo'lib o'rganadi.

Birinchi davr. Bu davrda bolaning lug'atining hajmi unchalik katta bo'lmay ularning nutqi gu – gulash, ya'ni taqlidiy so'zlar (ham – ham, umma) va bir bo'g'indan iborat so'zlardan iborat bo'ladi.

Bolaning birinchi so'zlari shaklsiz (amorf) bo'lib, birgina tovush signali turlicha ma'noga ega (ko'p hollarda bir necha predmetlarni) bo'ladi.

Odatda bolalar bu so'zlarni ularni ma'nosini bildiruvchi imo – ishoralar bilan talaffuz etadilar. Bolaning birinchi so'zlarining paydo bo'lishi birinchi jummalarni taqlid qilishning boshlang'ich davriga mos keladi. Bolalarda jumla tuzish malakasini shakllanishining keyingi rivojlanish bosqichida bola avval ikkita, so'ng uch – to'rtta shaklsiz so'zlarni birlashtiradi: Oyi nan – na be, ashsha ich...

Ikkinchi davr. Bolalar lug'ati sifat jihatdan jadal rivojlanadi. Bolalar lug'atining jadal rivojlanishi, nutqining ritm – ohang jihatdan va tovushlar talaffuzining takomillashuvi jarayonida so'zning bo'g'in takibida bir qator kamchiliklar kuzatilishi mumkin (bo'g'in o'rnini almashtirish, bo'g'inlarni tushirib qoldirish, qo'shimcha bo'g'inlarni qo'llash). Adabiyotlarda yuqorida keltirilgan kamchiliklar literal parafaziya atamasi bilan ishlatiladi, shuningdek bolalar parafaziyalari yillar mobaynida kattalarning to'g'ri nutq namunalari taqlid natijasida mustaqil ravishda to'g'rilanadi va bolada so'z yaratish malakasini faol rivojlanishi uchun zamin tayyorlaydi.

Ushbu davrda bolalarda soda va murakkab gap tuzish malakalarni rivojlanadi. Bolalar sekin – asta o'zining va atrofidagilarning nutqini nazorat qiladilar (bu hol ko'proq talaffuz jihatidan kuzatiladi).

Uchinchi davr. Bolalar nutqining morfologik tizimini egallaydilar. Bu davrda bolalarning lug'ati kengayib boradi (avval 3 -4 so'zdan iborat jumlar, so'ng murakkab gap tuzish malakalari shakllanadi). Bolalar lug'atining kengayishi

va lug'at boyligining murakkablashishi natijasida nutqning ma'no jihatining shakllanishi yuzaga keladi, ya'ni so'z ma'nosini konkret bosqichdan mavhum (abstrakt) bosqichga ko'tariladi.

To'rtinchi davr. Bu davrlarda bola tomonidan nutqning Grammatik tizimi (sintaktik, morfologik jihatdan) egallangan bo'ladi.

A.V.Zaxarova 6 – 7 yoshli bolalarning og'zaki nutqining tarkibini o'rganib, ruhiy zabon bolalar nutqida eng ko'p qo'llaniladigan so'zlarni ajratib ko'rsatadi: otlar – ona, odamlar, o'g'il bola; sifatlar – katta – kichik, bolalarniki, yomon; fe'llar – bormoq, so'zlashmoq, aytmoq. Bu yoshdagi bolalarning lug'atida kishilarni bildiradigan otlar ustunlik qiladi.

Bolalar kundalik lug'atida sifatlarni qo'llanish darajasini o'rganish asosida 100ta bayon etilgan so'zning 8.65% ni sifatlar tashkil etishi aniqlangan. A.V.Zaxarova bolalar nutqida doimiy takrorlanadigan, tez – tez qo'llaniladigan sifatlarni va birga qo'shib ishlatish mumkin bo'lgan so'zlarni ajratib ko'rsatadi (katta – kichik, bolalarniki, yomon, oyimniki), antonimlar (katta - kichik), baholar (yaxshi - yomon); aniqligi sust bo'lgan so'zlar (haqiqiy, turli, umumiy); so'z birikmalar tarkibiga kiruvchi so'zlar (bolalar bog'chasi, yangi yil). 6 – 7 yoshli bolalarning nutqining taxlili shuni ko'rsatdiki bolalar ranglarni ifoda etishi uchun 40dan ortiq sifatlardan foydalanadilar. Bolalar lug'atidagi bu guruhga oid sifatlar kattalar nutqiga qaraganda keng qo'llaniladi. Bolalar ko'p hollarda qora, qizil, oq, ko'k kabi ranglarning nomi bolalar tomonidan ko'proq ishlatiladi.

Bolalar hayotiy tajribasining ortishi, uning faoliyati va atrofdagilar bilan munosabatini murakkablashuvi natijasida bolalarning lug'at boyligi miqdor jihatdan boyib boradi. Bolalar lug'atining hajmi va uning rivojlanishiga oid adabiyotlarda turlicha ma'lumotlar keltiriladi, bu bolalarning lug'atining o'ziga xos individual rivojlanishi va bolaning yashash sharoiti tarbiyasiga bog'liq (Makarova.N.V).

Bola tafakkurining rivojlangani sari uning lug'ati nafaqat boyib boradi, shuningdek ma'lum tartibga keladi, tizimga ega bo'ladi. So'zlar semantik jihatdan guruhlanadi. Bunda sematik jihatdan birlashish bilan birga semantik qatorda

leksika taqsimlanadi: markaz va tashqi qism (periferiya). Semantic qatorning markazini yaqqol semantik belgilarga ega tez – tez takrorlanib turadigan soʻzlar tashkil etadi (A.N.Gvozdev).

Mavzu yuzasidan oʻrganilgan adabiyotlar tahliliga koʻra, bolalardagi koʻrish idrokining buzilishi uning sensor tajribani mustaqil tarzda toʻplashida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi bu esa nutqning psixik bazasi shakllanishini kechiktiradi.

1.2. AQLI ZAIF BOLALAR NUTQINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Insonning eng muhim fazilatlaridan biri uning soʻzlash qobiliyatiga ega boʻlib, nutq vositasida oʻzaro aloqa bogʻlay olish, fikrlasha bilishdir. Turli tovushlarning maʼlum tartibda birgalashib, payvasta qoʻshilishidan yuzaga kelgan maʼnoli nutq muayyan organizmlarning faoliyati natijasida paydo boʻladi.

Nutq murakkab funksional jarayondir. Uning asosida muloqot jarayonidagi til birliklarini oʻrinli qoʻllanish yotadi. Tilning murakkab sistemasi uzoq muddatli ijtimoiy –tarixiy rivojlanish mahsuli boʻlib u bola tomonidan nisbatan qisqa muddatlarda oʻzlashtirib olinadi. Nutq rivojlanishi jarayonida bilish faoliyatining oliy shakllari, tafakkur qobiliyatlari shakllanadi.

Soʻzning ahamiyati oʻz – oʻzidan umumlashtiruvchi hisoblanadi va shu munosabat bilan oʻzida nafaqat nutq birligini, balki tafakkur birligini ham namoyon qiladi. Ular aynan oʻxshash emas va maʼlum darajada bir – biriga bogʻliq boʻlmagan holda paydo boʻladi. Lekin bolaning ruhiy rivojlanish jarayonida murakkab sifati jihatidan yangi birlik nutqiy tafakkur nutqiy fikrlash faoliyati paydo boʻladi.

Kishilarning tili vositasida oʻzaro munosabatda boʻlish jarayoni nutq deb ataladi.

Nutq va tilni ayni bir narsa deb hisoblash yaramaydi. Nutq odam boshqa kishilar bilan munosabatda bo'lish maqsadida tildan foydalanadigan faoliyatdir. Har biro dam muomilani o'zicha amalgam oshiradi. Lekin bu muomala muayyan millat foydalaniladigan o'sha bir xil vositalari yordamida yuz beradi.

Til esa ana shu vositalar yordamida vujudga keladi. Til tovush va so'z boyligi shuningdek grammatik shaklidir. Til ijtimoiy ishlab chiqarish taraqqiyoti davomida kishilar o'rtasidagi nutq vositasidagi muomala jarayonida paydo bo'ladi va uni inson tayyor holda o'zlashtirib oladi.

Nutq birgalikda mehnat qilish jarayonida kishilarda bir – biriga nimadir aytish ehtiyoji tug'ilgan vaqtda yuzaga keladi.

Kishilar nutq yordamida o'z zamondoshlariga muayyan vaqtda nimalar yuz berayotganini xabar qilibgina qolmaydilar, balki insoniyat to'plagan bilimlarning avloddan – avlodga yetkazib beradilar. Bola nutqni egallab olganidan keyin o'zi tug'ilgan jamiyat hayotida kishilar bilan munosabatda bo'ladi. Agar bola biror sababga ko'ra nutqni eslab qolmasa, uning aqliy kamoloti past darajaga tushib qolishi mumkin.

Fikrlash o'quvchining nutqi va tafakkurini o'sishida muhim vositadir. Tashqi nutq tovushlar yordamida eshittirilib yoki grafik belgilar bilan yozilish boshqalarga qaratilgan nutqdir. Ichki va tashqi nutqning fiziologik tabiati bir xil farq tovush chiqariladi yoki yozib bayon etiladi, ichki nutqda nutq organlarining harakati tovushsiz yuzaga keladi.

Fikrni ifodalash usuliga ko'ra nutq og'zaki va yozma bo'ladi. Og'zaki nutq yozma nutqdan quyidagilar bilan farqlanadi: og'zaki nutq, tovush nutq, yozma nutq esa grafik nutqdir. Og'zaki nutqda intonatsiya, mimika, imo – ishora jestikulyatsiyadan keng foydalanib, eshitish sezgisi asosiy rol o'ynaydi. Yozma nutqda esa ko'rish va motor harakat sezgisi asosiy rol o'ynaydi. Yozma nutqni aniqroq idrok qilishga yordam beradi.

Tafakkur va nutq bir – biri bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Shaxs o'ylayotganda odatda fikrlarni so'zlar, jummlalar tarzida, ichki nutq deb ataladigan nutq tarzida ifoda etiladi. Biroq shunday holler ham bo'ladiki shaxs fikrini so'zlar

bilan ifoda eta olmaydi. Bu holda odam ichki nutqdan tashqi ifodaga o'tishda o'z fikrini boshqa kishilarga tushunadigan qilib bayon etishda qiynaladi.

Kishilar tildan fikr bayon qilish quroli sifatida foydalanadilar. Ular so'z fikrlarini ovoz bilan eshittirib bayon qilishdan oldin u haqida o'ylab oladilar. O'ylagan paytida ovoz chiqarmasdan ichki nutqdan foydalanadilar. Bu ichki nutq hisoblanadi. Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan o'ylangan va fikrlangan nutqdir. Bu nutq fikrlovchi kishining o'ziga qaratiladi. Ichki intonatsiya, mimikadan foydalanish imkoni bo'lmaydi. Shu munosabat bilan yozma nutq ancha qiyinchilik tug'diradi. Yozma nutq ancha murakkab va mavhumdir.

Og'zaki nutq ham yozma nutq ham kishilarning o'zaro aloqa vositasi, quroli sifatida xizmat qiladi. Og'zaki nutq monologik va diologik nutq bo'lishi mumkin. Monologik nutq nomining o'zi aytib turganidek bitta odamning nutqidir. U ko'pincha boshqa kishilarga tinglovchilarga (doklad, hikoya) qaratilgan bo'ladi, lekin monologik nutq tinglovchilarga qarata aytilayotgan vaqtida ular uchun tushunarli bo'lishi kerak.

Diologik nutq ikki yoki undan ortiq kishining suhbatidan iborat bo'ladi. Har bir so'zlovchining fikrlari odatda almashinib turadi va odatda u monologik nutq singari davomi bo'lmaydi. Nutqning hamma aytib o'tilgan turlari aktiv nutq tushunchasiga kiradi. Ammo passiv nutq ham bo'ladiki, u kishining nutqini idrok etishi va tushunishini o'z ichiga oladi.

Bola nutqining normal rivojlanishi unga doimo yangi tushunchalarni o'zlashtirib olishga tevarak – atrof haqidagi bilim va tasavvurlarni kengaytirishga imkoniyat yaratadi. Bolaning atrofidagi katta odamlar qaysi tilda gaplashsalar bola ham shu tilni o'rganadi. Nutqni egallashdek juda ham qiyin jarayonni bola qisqa muddat davomida uddasidan chiqa oladi.

Bola rivojlanishida psixik jarayonlar bilan birga eshitish qobiliyati juda katta ahamiyatga ega. Buning normal rivojlanishida va umuman, barkamol bo'lib o'sishda barcha psixik jarayonlar bilan eshitish qobiliyati chambarchas bog'liq holda, hech qanday nuqsonsiz rivojlangandagina bolaning nutq boyligi normal darajada rivojlanadi.

Aqli zaif bolaning xususiyati shundaki uning psixikasi qoidaga bo'ysunmaydigan sharoitlarda anomal taraqqiy topish jarayonida shakllanadi. Aqli zaif bola sog'lom tengdoshlaridan shu bilan farqlanadiki, uning ilgarigi tajribasi va rivojlanishida bundan keyingi psixik kamol topish uchun zarur shart – sharoitlarni tashkil etuvchi mexanizmlar hamda psixik jarayonlar shakllanmagan bo'ladi. Shunday qilib, aqli zaif bolaning umumiy psixik taraqqiyot darajasi odatdagi sharoitlarda uning maktab bilimlari, ko'nikma va malakalarni ongli suratda egallashini ta'minlay olmaydi.

Bolaning psixik kamol topishiga uni ommaviy yetarli tayyorlanmagan holda bo'ladi, o'quv topshiriqlarining maqsadiga diqqatini to'play olmaydi, qiyinchiliklarni yengib o'ta olmaydi. Maktabdagi tartib qoidalarga bo'ysunolmaydi. Bularning hammasi o'zlashtirmaslikka olib keladi. Shuning uchun yordamchi maktabning muhim vazifalaridan biri o'quvchini umumiy taraqqiy topishida ilgari siljitish uchun pedagogik jarayonga korreksion momentlarni singdirishdan iborat. Yetakchi faoliyat uning psixik jarayonlari va shaxsiy hususiyatlarida eng bosh o'zgarishlarni taqozo etibgina qolmay, balki uning o'sib borishida yaxshi ko'rsatkich hamdir.

B.N.Pinskiy ta'kidlashicha, aqli zaif bolalar o'zlarining sog'lom tengdoshlari mustaqil holda yoki o'qituvchining ozgina ko'magi bilan bajara oladigan vazifalarni uddalashlari uchun propedevtik va korreksion tarbiyaviy tadbirlarga muxtojdir.

Nutqini o'z vaqtida to'g'ri egallash bolaga atrofni o'rab turgan odamlar bilan erkin muomala qilish imkonini beradi, o'z nutqini boshqarishiga ko'maklashadi va nihoyat maktabda ta'lim – tarbiya berish jarayonini ancha yengillashtiradi.

Aqli zaif bolalar o'zlarining sog'lom tengdoshlaridan farqli o'laroq ancha kech tilga kiradilar. Birinchi so'zni muddati bolaning uch, ba'zan besh yoshgacha kechikadi. Eng avvalo bu yerda talaffuzdagi nuqsonlarni qayd etish kerak. G.A.Kainning tadqiqotlariga ko'ra, yordamchi maktab o'quvchilarining 66 foizi tutilib gapirishning u yoki bu shakliga duchor bo'ladi. Aqli zaif bolalarda nutqiy

nuqsonlarning shunchalik katta miqdorda uchrashi tasodifiy xol emas. Zotan bosh miya po'stlog'ining shikastlanishi, fonematik eshituvning buzilishiga artikulyatsion apparat harakatining izdan chiqishiga olib keladi. Aqli zaif bolalar tilning lug'aviy boyligini egallashda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Aqli zaif o'quvchilar qo'llaydigan so'zlar zahirasi odatdagi meyorga tenglashtirib bo'lmaydigan darajada tordir. Ular ko'pincha so'zlarning ma'nosini tushunmaydilar. 1) Mavhum tushunchani ifodalovchi mashaqqat, qimmatroq, arzonroq; 2) ko'chma ma'noda qo'llangan so'z.

Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarning mohiyatini tushunmaydilar, <<Oltin bosh>> degan ibora bolada kulgi uyg'otadi, hamda ularning e'tiroziga duch keladi. <<Bunaqasi bo'lmaydi>> deyishadi ular. Nari borganda o'quvchilar bu ibora vositasida quyoshda yiltillagan sochlarni tushunishadi. Hatto yordamchi maktabning yuqori sinf o'quvchilari ko'chma ma'nodagi so'z birikmalarining to'g'ri sharxlashda qiynalishadi. Aqli zaif bolalarning nutqini farqlaydigan yana bir xususiyat bu ularning noto'g'ri talaffuz etishlaridir. Gap shundaki miya po'stlog'ining analizatorlik faoliyati buzilishi tufayli, atrofdagilar haqida noaniq tasavvurlar o'quvchilarni kuzatgan narsa va xodisalarni noaniq atashga olib keladi. Natijada predmetlarning o'xshashligini ilg'ab ularning farqini ilg'amasdan bunday predmetlarni bir xil so'z bilan atashadi. Aqli zaif bolaning faol lug'ati uning nafaol lug'atidan kambag'alroq bo'ladi.

M.P.Feofanovning tadqiqotlariga ko'ra aqli zaif bolalarning nutqiga oid qo'shimchalar sog'lom intellektidagi bolalarnikiga nisbatan ikki barobar kam bo'lishi aniqlangan. Yordamchi maktab o'quvchilari, xususan yuqori sinf o'quvchilari og'ir, baland, past, chuqur va shu singari so'zlarni osongina tushuntirishadi. Ulardan maxsus xarakterdagi mashqlarda to'g'ri foydalanishadi. Biroq o'z vaqtida ular chegaralangan doiradagi sifatlarni xush ko'rishadi. Jumladan yaxshi, yomon, katta va kichik singari. Shu boisdan ham o'quvchilarning so'zlab berishlari noaniq va bir xil bo'lib qoladi. Jumladan ular shunday hikoya qilishadi: <<Zumradning turmushi yomon edi>>, <<Murodjon hayvonlarga yaxshi munosabatda bo'lar edi>>. Mazkur holda tormoz jarayonining xususan

defferensiallangan tormozlanishining zaifligi aqli zaif o'quvchilar yoqtiradigan so'zlar bosh miya po'stlog'ida tormozlanmaydi, ular topshiriqning mohiyatini hisobga olmasdan tez aytib yuborishadi. Aqli zaif bola hikoyalarining yoyiqligi ko'p jihatdan ular nutqida motvlarning bo'lmasligi bilan izohlanadi. Bunday o'quvchilar gap qurishga ham qiynaladilar. Bu holat so'zlar moslashuvida ko'p uchraydi va ular nutqiga xosdir. Aqli zaif o'quvchilar nutqi sintaktik jihatdan ham o'ziga xos ravishda ajralib turadi. Eng avvalo gaplarning tuzilishiga ko'ra jo'ngligini qayd etish kerak.

Yordamchi maktab o'quvchilarining nutqida qo'shma gaplar odatda iptidoiy ko'rinishda oddiy bog'lanishda uchraydi. Chunki o'quvchilar bir narsani ikkinchisiga qiyoslashda hodisalarning sababiy bog'lanishlarini ochib berishda qiynalishadi. Gaplarning tuzilishidagi bu xil jo'nlik aqli zaif bolaning bosh miya po'stlog'ida shakllanuvchi oddiygina aloqalarga mos keladi. Buning ustiga aloqalarni yetarli aniq anglamasligi aqli zaif o'quvchilar fikrining noaniq tugallangan bo'lib qolishiga olib keladi. Bolalar o'qiyotgan, eshitayotgan, ko'rayotgan narsalar haqida bir qator xatolarga yo'l qo'yadilar. Aqli zaif bolalar hatto 1 – sinf o'quvchilari hamma vaqt ham o'zgalarning og'zaki ko'rsatmasi bo'yicha faoliyat ko'rsatisha olmaydi. A.R.Luriya, N.P.Paramanova, O.K.Tixomirov va boshqalar o'tkazgan tajribalar shuni ko'rsatadiki aqli zaif bola o'zining harakatlariga qo'llanma bo'la oluvchi umumiy qoidalarni mustaqil ifodalab berishga qodir emas. Aqli zaif bolaning ichki nutqi tashqi nutqiga nisbatan ko'proq shikastlangan bo'ladi. Ichki nutq aqlida shakllangan har qanday fikrning moddiy qobig'idir. Aqli zaif bola nutqidagi bunday nuqsonlar, ularning o'qishini qiynlashtiradi. O'quvchilar hamma vaqt ham o'qituvchining tushuntirishlarini fahmlashavermaydi, matn mazmunini mustaqil tushunib yetmaydi, o'z harakatlarini o'rganilgan qoida bilan zaif nazorat etishadi. So'z ular uchun narsaning o'zi bilan chatishib ketgan bo'ladi, uning aniq mazmunidan ajratish uchun ya'ni uni Grammatik fonetik jihatdan o'rgana boshlash uchun katta shijoat talab etiladi. 2 – sinf o'quvchisiga Misha va Masha so'zlarining yozilishidagi farq nimada? Degan savolga <<Misha o'g'il bola, Masha qizcha>>, deb javob bergan.

Bunday bolalar so'zlarning grafik tasviriga e'tibor berishmaydi. Faqat sinchiklab harfma - harf qilingan tahlilgina ularning to'g'ri xulosa chiqarishlariga yordam bo'ladi. Bu yerda aqli zaif bolalarning xususiyatlarini mutlaqo yengib bo'lmaydigan, o'zgarmas narsa deb hisoblash to'g'ri emas.

Ilg'or pedagog – defektologlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, ta'limning maxsus tashkil etilgan sistemasi yordamida aqli zaiflarning nutqiy faoliyatidagi nuqsonlarni korreksiyalab boorish, tafakkurning kechikishidagi nuqsonlarni oshirish mumkin.

Aqli zaif bolalar juda ko'p tovushlarni, ya'ni sirg'aluvchi til orqa, sonor tovushlarni buzib talaffuz etadilar. Bunday holat bola nutq apparatining yaxshi rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Bu guruhga kiruvchi bolalar orqasida tovushlarni buzib talaffuz etish, boshqa tovushlarga almashtirish ko'proq foizni tashkil etadi. Shuning uchun ham logopedlarning o'qituvchilarning asosiy vazifasi aqli zaif bolalar nutqini har tomonlama o'stirishdir. Tovushlarni to'g'ri talaffuz etish bola artikulyatsion apparatining yaxshi uyg'unlashib moslashib ishlashiga bog'liqdir. Shuning uchun ham logopedlarning o'qituvchilarning asosiy vazifasi aqli zaif bolalar nutqini har tomonlama o'stirishdir. Tovushlarni to'g'ri talaffuz etish bola artikulyatsion apparatining yaxshi uyg'unlashib, moslashib ishlashiga bog'liqdir. Shuning uchun hamma vaqt tovushlar ustida ish olib borilar ekan, albatta artikulyatsin gimnastikalar o'tkaziladi. Ayrim unli va undosh tovushlar asta – sekin egallab boriladi. Bolalarning ko'pchiligi ayrim tovushlarni ya'ni R, S, K, G, M, Sh, Ch tovushlarini talaffuz etishda qiynaladilar, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qiladilar.

Rus psixologi A.R.Luriya <<Nutq tovushlarini idrok etishda nutqiy oqimdan signali fonematik belgilar ajraladi va nutq tovushlarini differensiatsiya qilish ushbu maxsus belgilarnikuchaytirishni hamda muhim bo'lmagan, tasodifiy, fonematik ahamiyatga ega bo'lmaganlardan ajratish asosida amalga oshadi>>.

Shuni aytib o'tish zarurki, aqli zaif bolalarda faqatgina faol nutqning rivojlanishi kechikib qolmaydi. Bolalar ularga qaratib so'zlagan nutqni yaxshi

tushunmaydilar. Kattalarning savollari, talablari, tushuntirishlari va ko'rsatmalari ularning hayotida birmuncha boshqa ahamiyatsiz ro'l o'ynaydi.

Aqli zaif bolalarning maktabgacha tarbiya davridagi nutqiy aloqa qilish faoliyati bilan bog'liq tajriba kamroq vaqtni 3 – 4 yilni o'z ichiga oladi. Shunda ham uning rivojlanish sur'ati keskin orqada qolgan nutq faolligining zaifligi kuzatiladi. Bolaning maishiy so'zlashuv nutqi yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Bu esa oligofren bolaga kattalar bilan nutqiy aloqa qilishni qiyinlashtiradi. Bola suhbatlar ishtirok eta olmaydi, savollarga bir xil tarzda va doimo ham to'g'ri javob bermaydi. Topshiriq va vazifalarni bajarish unga qiyinchilik tug'diradi.

Aqli zaif bolalar uchun xos bo'lgan umumiy motor rivojlanmay qolishi ham nutqning rivojlanishinig sekinlashishida ma'lum bir ro'l o'ynaydi. Motorikaning (harakatlarning) rivojlanmay qolishi bolaning atrof – dunyo bilan tanishish jarayonini buzadi va natijada ular haqida tasavvur va ma'lumotlarni to'plashni tormozlaydi. Aqli zaif bolalarda kuzatiladigan motorikaning nuqsonlari ular nutqning talaffuz tomoniga ham ta'sir etadi. Chunki nutq tovushlarining so'zlarning ixtiyoriy talaffuzi nutq a'zolarining yuqori darajadagi koordinatsiyalashga harakatlarini talab etadi. Aqli zaif bolalar uchun esa nutq a'zolarining koordinatsiyalashgan harakatlari qiyinchilik tug'diradi.

Aqli zaif bolalar uchun xarakterli bo'lgan fonetimatik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligi va nutq harakatidagi kamchiliklar bir – biriga ta'sir etadi va nutqning rivojlanishini tormozlaydi. Ammo shuni nazarda tutish lozimki, nutq a'zolari xarakatidagi kamchiliklarni xaddan tashqari ko'pirtirib ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'lmaydi, chunki bu buzilishlar keyinchalik oson bartaraf etilishi mumkin. Asosiy yetakchi rol fonematik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligiga tegishli bo'lib u aqli zaif bolalarning umumiy rivojlanishi nuqsonlarning oqibatidir. Nutq nuqsonlarining aqli zaif bola umumiy ruhiy taraqqiyotiga salbiy ta'siri J.I.Shif qo'llanmasida atroflicha chuqur tahlil qilib berilgan. Muallifning e'tirof etishicha aqli zaif bolalar bilan sog'lom bola orasidagi farq ularning faol nutqlarida ko'zga tashlanar ekan. Aqli zaif bolalar o'z nutqlarida sifat, fe'l, bog'lovchilardan juda kam foydalanar ekanlar. I.M.Savchenovning

ta'biricha so'z bola uchun ma'lum vaqtgacha narsalarning <<tahallusi>> sifatida tushunilib kelinadi. Bolalar ulg'aygan sari narsa nomlarining ahamiyati ham o'sib aniqlanib boriladi. Aqli zaif bolalarda <<tahallus>>lardan tushunchalarga o'tish jarayoni juda uzoq va qiyin shakllanadi. Yordamchi maktab birinchi sinf o'quvchilarining nutqidagi Grammatik tuzilishlar takomillashmagan bo'ladi. Ularning jumalari bir so'zdan, soda so'zlardan iborat bo'ladi. O'z fikrlarini bayon qilishda juda qiynaladilar. Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar nutqi sog'lom 3 – 4 yoshli bolalar nutqini eslatadi bu bolalar o'z fikrlarini o'ylab tugatmasdan yoza boshlaydilar.

Shuning natijasida gapning boshlanishi bilan tugashi orasida bog'liqlik bo'lmaydi. Yordamchi maktab o'qituvchilari aqli zaif bolalarga yozish, o'qish malakalarini o'rgatishda ko'p qiyinchiliklarga duch keladilar.

Dibil darajasidagi aqli zaif o'quvchilar nutqidagi Grammatik qurilishning buzilishlari masalasi qator olimlar tomonidan (rus tadqiqotchilari M.S.Gnezdilov, M.N.Yefimnkova, I.N.Sadovnikova, O.L.Jilsova, M.P.Fiofanovalar ishlarida) o'rganilgan. Ularning ko'rsatishicha aqli zaif bolalar nutqda gaplardan ancha kechikib foydalana boshlaydilar. Dastlabki jumlar aqli zaif bolalar 5 yoshdan so'ng paydo bo'la boshlaydi va u bir qator kamchiliklarga ega bo'ladi. Aqli zaif bolalarning nutqi asosan sodda gaplardan iborat bo'ladi. Ular maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshida ham sodda gaplarni tuzilishini egallab olmagan bo'ladilar. Tuzgan gaplarida Grammatik xolatlar juda ko'p kuzatiladi, gaplardan boshqaruv va moslashuv bog'lanishlar buzilishlari yuz beradi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar quyidagicha gap tuzilishlarini eshitish mumkin: <<U bosh yo'q>>, <<Bola maktab ketdi>> va hakazo. Ular aqli zaif bolalar ko'pincha bir so'zdan iborat gaplar qo'llaydilar. Bu <<gap – so'zlarda>> bayon etilayotgan fikr ajratilmagan ko'rinishda bo'ladi.

Ko'pincha aqli zaif bolalar Grammatik jihatdan to'liq bo'lmagan gaplar tuzadilar. Ularda tuzilish qoidasi asosiy bo'laklarni tashlab ketish hisobiga qo'pol tuziladi. Masalan <<Olmaxon daraxtda o'tiribdi>> o'rniga <<Olmaxon daraxt>>, <<Bola televizor ko'rdi>> o'rniga <<Bola ko'r>> tarzda gapiradilar.

Aqli zaif bolalarni yozma nutqlari murakkab ruhiy faoliyatdir. Og'zaki nutqdan yozma nutqga o'tish bolalar nutqining rivojlanishida yangi davrdir. Aqli zaif bolalarning so'zlarini tovush tomonidan tahlil qila olishlari Grammatik qonun qoidalarni muvaffaqiyatli egallashlarida asosiy vositadir. N.S.Rojdestvenskiyning ta'kidlashicha, <<So'zdagi tovushlarni farqlamasdan ularni ajratmasdan, bolalarni o'qish va yozishga keyinchalik to'g'ri yozishga o'rgatish mumkin emas>>. Aqli zaif bolalarda o'z kuchiga ishonch hosil qilmasdan turib yordamchi maktablar o'z oldiga qo'yilgan maqsadlariga erisha olmaydi.

Buning uchun aqli zaif bola bilan uning kuchi yetadigan elementar ko'nikma va malakalardan boshlash kerak. Bolalarning nutq faoliyatlari ham bundan mustasno emas. Yordamchi maktab o'quvchilaridan ayrimlarida uchrab turadigan <<Oynali>> yozuv ham qator qiyinchiliklar bilan bartaraf etiladi. Qator aqli zaif bolalar yozuv malakalarini to'g'ri egallay olmaydilar.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda bog'langan nutq shakllanmagan bo'ladi. Ular dialogda ishtirok eta olmaydilar. Monologik nutq aqli zaif bolalarda katta qiyinchiliklar tug'diradi. Katta maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilari uzoq vaqtgacha nutq orqali mustaqil keng bayon etishga o'ta olmaydilar. O'z fikrlarini og'zaki shaklda bayon etish uchun ular doimo kattalarning yordamiga muhtoj bo'ladilar. Me'yorida rivojlanayotgan bolalarda nutqning fonematik tomonini shakllanishi 4 – 5 yoshda o'tadi. Ona tilini egallash jarayonida u nutq oqimidan so'zlarni ajratishga ularni tahlil qilish ularning asosiy ma'no beruvchi fonema – tovushlarni eshitishga hamda talaffuz qilishga o'rganadi. Asta – sekin eshitish analiz va sintezini aniqlab artikulyatsiya a'zolari ishining takomillashib borib nutqning semantic tomonini o'zlashtirgan sari bolaning talaffuzi ancha to'g'ri bo'lib boradi va maktabga boorish vaqtida tilini fonetik normalariga mos keladi.

Aqli zaif bolalar talaffuzidagi nuqsonlar – nutqning to'liq rivojlanmaganligining ko'rinishlaridan biridir. Me'yorida rivojlanayotgan bolalarda kuzatiladigan talaffuz nuqsonlaridan farqli aqli zaif bolalarda uchraydigan talaffuz kamchiliklari boshqa ancha murakkab shuning uchun ham

bartaraf etish qiyin bo'lgan sabablarga ega boladi. Ularning asosida bola tomonidan ona tilini tovush tomonini o'zlashtirishning sekinlashganligi yotadi. Aqli zaif bolaga eshitilishi bo'yicha o'xshash fonemalarni ajratish va so'zning tovush tahlilidagi qiyinchiliklardan namoyon bo'ladigan fonetiko – fonematik buzilishlar xosdir. Bular talaffuz nuqsonlarini keltirib chiqaradi. Haqiqatdan o'xshash tovushlarni yetarlicha aniq ajrata olmasdan bola ularni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgana olmaydi, chunki mustaqil ravishda o'zining talaffuzini nazorat qilish takomillashtira olmaydi.

So'zning tovush tahlili va sintezning nuqsonlari o'z navbatida ularning tuzilishini egallab olishga to'sqinlik qiladi. So'zlarda tovushlarni tashlab ketish o'rmini almashtirish, shuningdek so'zni oxirigacha aytmalikka olib keladi.

Aqli zaif bolalarda fonematik eshitishning yomonligi, turli talaffuz kamchiliklari bolalarni yozish va o'qish faoliyatlariga ta'sir qilmay qolmaydi. Aqli zaif bolalar shaklan o'xshash xarflarni bir – birlari bilan almashtirib yozadilar. Ular orasida ma'lum analizatorlari buzilgan bolalar ham uchrab turadi. Bunday mazmundagi kamchiliklar individual – korreksion ishlar bilan bartaraf etib boriladi.

Aqli zaif bolalarda nutqning fonematik nuqsonlari turlicha namoyon bo'ladi. Ba'zi bolalarda ular yaqqol namoyon bo'ladi. Bolalar ba'zi tovushlarni umuman talaffuz etmaydilar (Sh, R, K va boshqalar), bir qator tovushlarni noaniq talaffuz etadilar (L, Z, B), artikulyatsiyasi va eshitishi bo'yicha o'xshash tovushlar almashtiriladi. Aqli zaif bolalarning ba'zilarida tutilib gapirish kuzatilib, bu nuqson tovushlar talaffuzining buzilishlari yoki boshqa nutq nuqsonlari bilan birgalikda kelishi mumkin. Shubxasiz talaffuz kamchiliklari aqli zaif bolalarda me'yorida rivojlanayotgan bolalarga qaraganda ko'proq uchraydi. G.A.Kashening ma'lumotiga ko'ra yordamchi maktab 1 – sinf o'quvchilarining 65%, 2 – sinf o'quvchilarining 60% da u yoki bu darajadagi talaffuz nuqsonlari kuzatiladi. I.P.Kornevning kuzatishlaricha yordamchi maktabga o'qishga qabul qilinayotgan vaqtda aqli zaif bolalarning 60% turli talaffuz qiyinchiliklariga ega bo'ladilar.

Tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar bartaraf etilganidan so'ng ham aqli zaif bolalar tovushlarni alohida talaffuz eta olsalar ham bu tovushlarni mustaqil so'zlashishda qo'llay olmaydilar. Chunki alohida tovushlarni talaffuziga qaraganda tovushlardan o'zining faol nutqida foydalanish haqiqatdan murakkab faoliyatdir.

Aqli zaif bolalar bilan aloqa qilishda ular nutqining yetarlicha ifodali emasligi ko'zga tashlanadi. Og'zaki nutqning fonetik ifodaliligining asosiy vositasi bo'lib jumlaning aksentli ajratish va jumlaning intonatsiyasi xizmat qiladi. Aqli zaif bolalarning og'zaki nutqida ifodali vositalar juda zaif bo'ladi. Ularning nutqi monotonligi, intonatsiyasiz keraksiz pauzalar bilan xarakterlanadi.

Alohida hollarda potologik sekinlashgan past yoki tezlashgan qo'zg'algan bo'ladi. Aqli zaif bolalarda so'zlar boyligi odatda juda sekinlashgan bo'lishi kuzatiladi. Ular ko'pincha doimo uchraydigan yaxshi tanish bo'lgan predmetlarning nomlarini ham bilmaydilar. G.L.Vigtoskiyning ma'lumotlaricha aqli zaif 1 – 2 sinf o'quvchilari lug'atida asosan ot va fe'llar ustunlik qiladi. G.M.Dulnevning aqli zaif bolalar o'z nutqida sifatlardan kam foydalanadilar deb ko'rsatadi.

Lug'at zaxirasining kamligi aqli zaif bolalarga o'z fikrini his tuyg'u va istaklarini aniq ifodalashga to'sqinlik qilibgina qolmasdan balki bir qator hollarda ularga qaratib so'zlangan nutqni tushunishlkariga halaqit beradi. Ko'p hollarda ular bir so'z bilan bir necha tushunchalarni umumlashtiradilar. Masalan, qushning tumshug'ini burni, ro'molni – shapka va hakazo deydilar. Bir qator xollarda aqli zaif bolalar bir so'z bilan bir – biriga yaqin predmetlarnigina emas, balki ancha yiroq bir – biriga umuman yaqin bo'lmaganlarni ham bir so'z bilan ifodalaydilar. Masalan, qushning patina <<soch>> deb ko'rsatadilarbunda aqli zaif o'quvchilar muhim bo'lmagan faqatgina tashqi ko'rinish ba'zan esa u yoki bu sababga ko'ra ko'zga taslangan o'xshashlik asosida predmetlarni nomlaydilar. Bir tomondan predmetlar ikkinchi tomondan so'zlar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xosligi aqli zaif bolalarda kuzatiladigan predmetlar aro differentsiatsiyasi haqida ma'lumot beradi. Aqli zaif bolalarning ko'pchiligi turli – tuman predmetlarni nisbatan oson tanib nomlaydilar. Ammo ob'yektlarning xususiyatlari o'rtasida o'xshashlik

mavjud xollarda ularni nomlashda aqli zaif bolalar keskin qiyinchilikka uchraydilar.

Aqli zaif bolalar tomonidan predmetlarning sifatlarini nomlashda ham so'zlarni o'rinsiz, keng ma'noda tushinish va qo'llash holatlari kuzatiladi. Masalan <<katta>> so'zi orqali obyektning faqatgina katta – kichikligini emas, balki og'irligi, uzunligi, qalinligi, balandligi va hakazolarni ifodalaydilar. Bunday xususiyatlar asosida aqli zaif bolalar jarayonlari xususan analiz va sintezning o'ziga xosligi yotadi.

Atrofdagilarning yetarlicha aniq idrok eta olmay anglay olmasdan aqli zaif bolalar predmetlarni defferensiatsiyalab nomlaydilar va umumlashgan mavhum nomlar bilan chegaralanib qoladilar.

Aqli zaif bolalar nofaol lug'atining faol lug'atdan ustunligi kuzatiladi. (G.M.Dulnev) aqli zaif bolalarda so'zlarning ko'p qismi ularning nofaol lug'atiga kiradi, nutqda esa ularning juda kam qismi qo'llaniladi. Aqli zaif bolalar nutqini rivojlanishini tormozlaydigan asosiy omillardan biri bu kategoriyadagi bolalarga xos bo'lgan ona tilining semantic tomonini o'zlashtirib olishda yetishmovchilik hisoblanadi. Ma'lumki bolalar tanish so'zlarni ancha oson talaffuz qiladilar va ajratadilar. Demak, so'zning ahamiyati bolaning fonematik eshitishini yo'naltirish va tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Umumiy rivojlanishdagi nuqsonlar aqli zaif bolalar tomonidan atrofdagilar predmetlarni nomlab yoki harakatlarni bajarayotib talaffuz etayotgan so'zlarni tushunishga to'sqinlik qiladi.

So'zlarning ma'nosini tushunishdagi nuqsonlar o'z navbatida fonematik eshitishning rivojlanishini qiyinlashtiradi, shu bilan bola nutqini shakllanishini tormozlaydi.

Me'yorida rivojlanayotgan maktabgacha yoshdagi bolada nutq hayotiy tajribani bevosita anglantirish atrofdagilar bilan aloqa qilish bilan chambarchas bog'liq shakllanadi. Bolaning faol amaliy va bilim faoliyati uning tasavvurlari doirasini kengaytiradi, unda yangi ehtiyoj va qiziqishlarni paydo bo'lishiga turtki beradi. Bu esa o'z navbatida bolada kattalar bilan nutqiy aloqa qilish zaruriyatini keskin oshishiga olib keladi. Kattalar bilan aloqa qilish orqali bola o'zining

lug'atini boyitadi, so'zlarning yangi ma'nolarini bilib oladi, so'z birikmalarini o'zlashtiradi, so'ngra ulardan o'z istaklari, hislari, boshqa odamlarga munosabatini va hakazolarni ifoda etish uchun foydalanadi. Kichik yoshdagi aqli zaif bolalarda ham nutqning rivojlanishi albatta uning hayotiy tajribasini oshishi va atrofdagilar bilan aloqa qilish bilan bog'liq. Ammo psixikaning umumiy rivojlanmay qolganligi ularda tajribani kengayishi sekin va nuqsonli kechadi. Nuqsonli rivojlanayotgan amaliy va bilish faoliyati ko'p hajmdagi turli tasavvurlar tez to'plash uchun yetarlicha asos bo'la olmaydi.

Aqli zaif bola me'yorida ehtiyoj sezadi va yetarlicha muloqotda bo'lmaydi. Kattalar bilan muloqot aqli zaif bolalarda kech va me'yordan chetga chiqishlari bilan shakllanadi.

Aqli zaiflikni keltirib chiqargan gidrotsefaliyada ba'zan nutq yaxshi rivojlangandek tuyulsada, aslida unday bo'lmaydi. Bunday bolalarning nutqida juda murakkab jumlar, so'zlar bo'ladi, ular nutqning Grammatik tuzilishi ham juda murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu bolalarning fikr yuritishlari nasihatgo'ydek tuyuladi. Nutqning mohiyatiga o'zlari yaxshi tushunib yetmaydilar. Bu bolalar nutqi yaxshi rivojlangan bo'lsa ham aqli zaif bolalarning fikr yuritish quroli bo'la olmaydi. Aqli zaiflikdagi bunday o'ziga xos nutq juda kam uchraydi. Shizofreniya kasaliga uchragan aqli zaif bolalarning nutqi ham yuqoridagi holatga o'xshab ketadi. Bu bolalarda nutq malakalari tushunish holatlari, sog'lom bolalardan ham tez shakllanishi mumkin. Ularning so'x boyliklari normal bolalarnikidan kam farq qiladi. Ammo ular nutqida buzilgan so'zlar uchrashi mumkin. Bosh miya jarohatlarida revmatizmd aqli zaif bolalarning og'zaki nutqlarida sezilarli o'zgarishlar bo'lmaydi, shu bilan birga ularning yozma nutqlarida yetarli kamchiliklar uchraydi. Bunday bolalarning yozish malakalari juda sekin shakllanadi. Tutqanoq kasaligiga muhtalo bo'lgan bolalarning nutqi dastlabki ko'rinishda aqli zaif bolalar nutqiga o'xshaydi bu bolalar bir xil jumla, so'zlarni qaytarishga moyil bo'ladilar. Ular nutqida ortiqcha tutilishlar mavjud.

Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek yordamchi maktab boshlang'ich sinf o'quvchilarining 40 – 60% da turli nutq kamchiliklari uchraydi. Bu nuqsonlar

orasida asosiy qismni tili chuchuklik, manqalanish, duduqlanish tashkil etar ekan. Aqli zaif bolalar nutqining aloqa vositasi sifatidagi roli barcha tomonlardan zararlangan bo'ladi. Bunda nutqning axborot, hissiy – iroda, boshqaruvchanlik vazifalari buzilgan bo'ladi. Bunday bolalarda nutq bilan faoliyat orasida muvofiqlik ko'zga tashlanmaydi. Nomuvofiqlik aqli zaif bola nutqi bilan uning xulqi orasida ko'zga tashlanadi. Aqli zaif bolalar o'zlarini nazorat qilish uchun ham o'z nutqlaridan foydalana olmaydilar. A.R.Luriyaning ta'kidlashicha sog'lom bolalar bog'cha yoshidayoq nutqdan nazorat quroli sifatida foydalana olar ekanlar.

1.3. AQLI ZAIF BOLALARNI BOG'LANGAN NUTQINI O'RGANISH METODIKASI.

Maktabgacha tarbiya muassasalari ta'lim va tarbiya ishlarining keng dasturini amalgam oshiradi.

Aqliy nuqsonga ega bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning ta'lim – tarbiyasi respublikada maxsus ta'limning ajralmas qismi sifatida amalgam oshiriladi va nutqiy nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim – tarbiya berishda ulardagi nuqson qay darajada ekanligi ham albatta xisobga olinadi.

Ma'lumki aqli zaiflarning nutqiy rivojlanishiga nafaqat bolalarning ko'rish funksiyalarining ahvoli ta'sir etadi. Bu bog'liqlik bolalarning ko'rish idroki va hissiy tajribasi, shuningdek bolalarning bu kontingentini tarbiyalash va o'qitishning o'ziga xos sharoitlari uni korreksion rivojlantirish jarayonida yetarlicha hisobga olinmasligi cheklanganligi bilan belgilanadi.

Ma'lumki to'g'ri shakllanmagan nutqiy faoliyat bola shaxsining barcha sohalarini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni bilish faoliyatini rivojlanishini qiyinlashtiradi eslab qolish samaradorligini pasaytiradi mantiqiy va so'z ma'nosiga oid xotirada kamchiliklar kelib chiqadi, tafakkur operatsiyalarini amalgam oshirishda o'ziga xosliklar keltirib chiqaradi (T.A.Tkachenko, T.B.Filicheva, G.V.Chirkina). Shuningdek bolalardagi nutq kamchiliklari bolalarning shaxslararo munosabatiga va o'zaro muloqotiga salbiy ta'sir etadi (Y.F.Garkusha, N.S.Jukova, YE.M.Mastyukova) o'yin faoliyatining rivojlanishini sezilarli ravishda tormozlaydi (L.G.Solovyeva, T.A.Tkachenko I dr).

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda aqli zaif bolalar bog'langan nutqini o'rganish bolalar nutqini o'rganish sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan deb hisoblash mumkin. Shuningdek nutqiy ishlarning umumiy tizimida bolalar bog'langan nutqini rivojlantirish, uni mustahkamlash va faollashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bilim olish intilishni tushunchali tafakkurni rivojlantirishni yangi so'zlarni egallashsiz amalgam oshirib bo'lmaydi (Shashkina.G.R, Zernova.L.P, Zimina.I.A).

Aqli zaif bolalar bog'langan nutqini rivojlantirish – korreksion logopedik ishlarning asosiy vazifalaridan sanaladi. Bog'langan nutqini oydinlashtirish va boyitish mantiqiy tafakkurni rivojlanishida katta rol o'ynaydi va bolaning lug'ati qanchalik boy bo'lsa u shunchalik aniq fikrlay nutqi ravon bo'ladi. Mantiqiy jihatdan boy nutq bilimlarning ko'p sohalarini egallashning garovidir (Arxipova.YE.F).

Nutqiy nuqsonni to'g'ri aniqlash uchun bolaning psixik va nutqiy rivojlanishi bilan batafsil tanishish ishlari olib boriladi.

Shularni hisobga olgan holda biz eksperimental tekshirish ishlarimizni o'tkazish davomida maktabgacha yoshdagi olti yoshli bolalar bog'langan nutqining xususiyatlarini o'rganishga e'tiborni qaratdik.

Bolalar nutqini tekshirishda biz O.N.Usanova, G.V.Chirkina, L.YE.Levina, A.V.Yastrebova, M.Y.Ayupova va L.R.Mo'minovalarning bolalar nutqini tekshirish metodikalariga asoslangan eksperimental tekshirish ishlarini olib bordik.

Eksperiment individual shaklda olib borildi. Bunda bola bilan emotsional muloqotga kirishi uchun suhbatdan foydalanildi. Shuningdek anamnestik ma'lumotlar to'plandi, har bir bolaning psixologik – pedagogik tavsifnomasi haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun tarbiyachi va logoped bilan suhbat o'tkazildi.

Ta'kidlovchi eksperimentda tadqiqotning vazifalariga mos keluvchi metodlardan foydalanildi. Aqli zaif bolalarning bog'langan nutqini o'rganishda quyidagi metodlar qo'llanildi:

- bolaning tibbiy – pedagogik hujjatlarini o'rganish;
- bolalarni mashg'ulot predmetli – amaliy o'yin faoliyati jarayonida kuzaish;
- logoped tarbiyachilar bilan suhbat o'tkazish;
- topshiriqlar seriyasi asosida bog'langan nutqini o'rganish.

Aqli zaif bolalarning bog'langan nutqini o'rganish jarayonida ularga quyidagi topshiriqlar beriladi:

Mustaqil kichik ijodiy hikoya tuzish. Bolaning oldiga ixtiyoriy tartibda ma'lum syujetni aks ettiruvchi 3 – 4 ta rasm qo'yiladi. So'ng bolaga rasmlarni to'g'ri ketma – ketlikda qo'yish taklif etiladi. Shundan so'ng rasmlar asosida hikoya tuzish so'raladi.

Jihoz: syujetli rasmlar. Ta'kidlovchi eksperimentda quyidagi mavzularga oid predmetli rasmlardan foydalanildi:

- 1 to'plam: bolalar maydonchasida;
- 2 to'plam: kun tartibi;
- 3 to'plam: mavsumiy o'zgarishlar (bahor);
- 4 to'plam: oshxonada.

Xalq ertagidan biron bir mustaqil hikoya qilib berish so'raladi. Bunda bola ota – onasidan yoki pedagog tomonidan avval aytib berilgan ertak mazmunini aytib berishi lozim.

- 1 to'plam: “Ur to'qmoq” ertagi;
- 2 to'plam: “Bo'g'irsoq” ertagi;
- 3 to'plam: “Echki bolalari” ertagi.

Tekshiruvchilar tomonidan topshiriqlarni bajarilishi 5 ballik tizimda baholandi.

Baholash mezoni:

5 ball – bola barcha topshiriqlarni to'g'ri va mustaqil bajardi.

4 ball – bola topshiriqni bajarishda yakka xatolarga yo'l qo'ydi, yordamchi savollar yordamida to'g'irladi.

3 ball – ayrim hollarda topshiriqning mazmunini tushuntirish talab qilinadi, bola topshiriqlarni yordam asosida sekinlashgan tempda bajardi.

2 ball – topshiriqning mazmunini tushuntirish talab qilinadi, bola topshiriqlarni yordam asosida ya'ni xatolarni to'g'irlash, qayta urinishlar yordamida bajardi. Bolaning javoblari aniqlik kiritishni talab etadi.

1 ball – bola yordamdan foydalana olmaydi, to'g'ri javob bera olmadi.

II BOB. AQLI ZAIF BOLALARNING BOG'LANGAN NUTQINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK - KORREKSION ISHLAR MAZMUNI.

2.1. Aqli zaif bolalarni bog'langan nutqini o'rganish metodikasi natijalarining tahlili

Adabiyotlar tahliliga ko'ra maxsus pedagogika va maxsus psixologiyada aqli zaif bolalar bog'langan nutqini shakllantirish va rivojlantirish muammosi yetarlicha. Amaliyotda maktabgacha ta'lim muassasalarida aqli zaif bolalar bog'langan nutqini rivojlantirish yuzasidan metodik qo'llanmalarning yetishmasligi muammosini bartaraf etish zarurati o'z yechimini kutmoqda.

Ma'lumki aqli zaiflarning nutqiy rivojlanishiga nafaqat bolalarning bilish funksiyalarining ahvoli ta'sir etadi. Bu bog'liqlik bolalarning ko'rish idroki va hissiy tajribasi, shuningdek bolalarning bu kontingentini tarbiyalash va o'qitishning o'ziga xos sharoitlari uni korreksion rivojlantirish jarayonida yetarlicha hisobga olinmasligi cheklanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotimiz muammosi katta maktabgacha ta'lim yoshidagi aqli zaif bolalar bog'langan nutqini shakllanganlik darajasini aniqlashdan iborat. Ta'kidlovchi eksperimentni Jizzax shaxridagi 5sonli – maxsus maktabgacha ta'lim muassasasi 6 nafar tarbiyalanuvchilari bilan olib bordik va quyidagi natijalarga erishdik.

Aqli zaif bolalar mustaqil kichik ijodiy hikoya tuzish holatini tekshirish natijalari (% xisobida)

№	Topshiriqlar	Bolalarning umumiy soni	Bola barcha topshiriqlarni to'g'ri va mustaqil bajardi	Bola topshiriqni bajarishda yakka xatolarga yo'l qo'ydi, yordamchi savollari yordamida to'g'riladi	Bola topshiriqlarni yordam asosida sekinlashgan tempda bajardi	Bola topshiriqlarni yordam asosida javoblar aniqlik kiritishni talab etadi	Bola yordamdan foydalana olmaydi, to'g'ri javob bera olmadi
1	1 to'plam: bolalar maydonchasida	6ta	-	33%	33%	34%	-
2	2 to'plam: kun tartibi	6ta	17%	33%	50%		
3	3 to'plam: mavsumiy o'zgarishlar (bahor)	6ta	-	33%	50%	17%	
4	4 to'plam: oshxonada	6ta	-	33%	33%	34%	

Yuqoridagi jadvalga ko'ra, tekshiriluvchi balarning soni jami 6 tani tashkil etadi. 1 to'plam: bolalar maydonchasida topshiriqni bajarish bolalarga biroz murakkablik qildi, ulardan hech biri topshiriqni to'g'ri va mustaqil bajara olmadi, 2tasi (33%) topshiriqni yakka xatolarga yo'l qo'yishdi va yo'l qo'ygan xatolarini

yordamchi savollari yordamida to'g'riladi, 2tasi (33%) topshiriqni bajarishda yordam asosida sekinlashgan tempda bajardi, 2tasi (34%) topshiriqni mazmunini tushuntirishni talab qildi, bola topshiriqlarni yordam asosida ya'ni xatolarni to'g'rilash bir necha marta qayta urinishlar yordamida bajardi. Bolaning javoblari aniqlik kiritishni talab etadi. 2 to'plam: kun tartibi topshiriqni bajarish jarayonida 1ta tekshiriluvchi (17%) topshiriqni to'g'ri va mustaqil bajardi, 2tasi (33%) topshiriqni bajarishda yakka xatolarga yo'l qo'yishdi va o'z atolarini yordamchi savollari yordamida to'g'riladi, 3tasi (50%) topshiriqni bajarishda yordam unumli foydalangan holda sekinlashgan tempda xatolarini to'g'rilash yo'li bilan bajardi.

3 to'plam: mavsumiy o'zgarishlar (bahor) topshirig'ini bajarish jarayonida bolalar biroz o'ylanib qoldilar, tekshiriluvchi bolalardan 2tasi (33%) bahor faslining o'ziga xos tabiatini yakka xatolarga yo'l qo'yish almashtirish yordamchi savollari yordamida to'g'rilash asosida tasvirladi. Tekshiriluvchilarning 3tasi (50%) ayrim hollarda topshiriqning mazmunini qayta tushuntirishni talab qilishdi, topshiriqni yordam asosida sekinlashgan tempda bajardi. Tekshiriluvchilardan 1tasi (17%) yordam asosida ya'ni xatolarni to'g'rilash qayta urinishlar yordamida bajardi. Ushbu topshiriqni mustaqil xatolarsiz va umuman bajara olmagan bolalar kuzatilmadi.

4 to'plam: oshxonada mavzusi asosida mustaqil kichik ijodiy hikoya tuzishda tekshiriluvchi bolalardan hech biri topshiriqni to'g'ri va mustaqil bajara olmadi, 2tasi (33%) topshiriqni bajarishda yakka xatolarga yo'l qo'yishdi va yo'l qo'ygan xatolarini yordamchi savollari yordamida to'g'irladi, 2tasi (33%) topshiriqni bajarishda yordam asosida sekinlashgan tempda bajardi, 2tasi (34%) topshiriqni mazmunini tushuntirishini talab qildi, bola topshiriqlarni yordam asosida ya'ni xatolarni to'g'rilash bir necha marta qayta urinishlar yordamida bajardi.

Quyida maktabgacha ta'lim yoshidagi aqli zaif bolalar xalq ertagidan biron birini mustaqil hikoya qilib berish tekshirish natijalari (% xisobida) 2 – jadval aks ettirdik.

**Aqli zaif bolalar xalq ertagidan biron birini mustaqil hikoya qilib berish
holatini tekshirish natijalari (% xisobida)**

2 - jadval

№	Topshiriqlar	Bola larning umumiy soni	Bola barcha topshiriqlar ni to'g'ri va mustaqil bajardi	Bola topshiriqni bajarishda yakka xatolarga yo'l qo'ydi, yordamchi savollari yordamida to'g'riladi	Bola topshiriql arni yordam asosida sekinlash gan tempda bajardi	Bola topshiriqlar ni yordam asosida javoblar aniqlik kiritishni talab etadi	Bola yordam dan foydala na olmaydi , to'g'ri javob bera olmadi
1	1 to'plam: "Ur to'qmoq" ertagi	6ta	17%	33%	33%	17%	-
2	2 to'plam: "Bo'g'irsoq "ertagi	6ta	17%	33%	17%	33%	-
3	3 to'plam: (Echki bolalari) ertagi	6ta	-	33%	17%	50%	-

2 – jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra tekshiriluvchi bolalarning umumiy soni 6tani (100%) tashkil etadi. Ulardan 1tasi (17%) "Ur to'qmoq" ertagining mazmunini to'liq so'zlab bergan bo'lsa, 2tasi (33%) ertakning mazmuniniso'zlab berishda yakka xatolarga yo'l qo'ydi, yordamchi savollari yordamida to'g'riladi,

2tasi (33%) “Ur to’qmoq ” ertagining mazmunini so’zlab berishda yordam asosida sekinlashgan tempda amalgam oshirdi. 1tasi (17%) topshiriqlarni yordam asosida ya’ni xatolarni to’g’rilash qayta urinishlar yordamida bajardi. Bolaning javoblari aniqlik kiritishni talab etadi. Topshiriq mazmunini tushunmagan bajara olmagan bolalar kuzatilmadi.

2 – to’plam: “Bo’g’irsoq” rus xalq ertagini so’zlab berish topshirig’ini 1ta (17%) bola mustaqil va to’g’ri bajargan bo’lsa, 2tasi (33%) ertakning mazmunini so’zlab bajarishda voqealar ketma – ketligini almashtirish, yordamchi savollar yordamida to’g’irlash asosida bajardilar. Tekshiriluvchilardan 1tasi (17%) yordam asosida ya’ni xatolarni to’g’rilash qayta urinishlar yordamida bajardi, sekinlashgan tempda bajardi. Tekshiriluvchilardan 2tasi (33%) ertakning mazmunini so’zlab berishda yordam asosida ya’ni xatolarni to’g’rilash ertak personajlarini almashtirish qayta urinishlar yordamida bajardi. Topshiriq mazmunini tushunmagan bajara olmagan bolalar kuzatilmadi.

3 – to’plam: “Echki bolalari” ertagi mustaqil hikoya qilib berishda hech bir bola topshiriqni to’g’ri va mustaqil bajara olmadi, 2ta (33%) bola ertagidagi voqealar ketma – ketligini, rollarga bo’lib so’zlab berishda yakka xatolarga yo’l qo’ydi, yordamchi savollari yordamida yo’l qo’ygan xatolarini to’g’irladi. 2tasi (33%) “Echki bolalari” ertagining mazmunini so’zlab berishda yordam asosida sekinlashgan tempda amalga oshirdi. 2tasi (33%) topshiriqlarni yordam asosida ya’ni xatolarni to’g’irlash, qayta urinishlar yordamida bajardi. Topshiriq mazmunini tushunmagan bajara olmagan bolalar kuzatilmadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalar bog’langan nutqini shakllanganlik darajasini aniqlash bo’yicha berilgan topshiriqlarni bajara olmasligini kamchilik sifatida o’rganmadik. Ma’lumki, aqli zaiflik bolalar tomonidan sensor etalonlarni mustaqil egallash jarayonini qiyinlashtiradi. Bu holat ko’ruv idrokining rivojlanishining asosini tashkil etuvchi perseptiv harakatlar va

jarayonlarni shakllanishini kechiktiradi. Aqli zaif bolalarda ko'ruv vaziyatli, predmetli – harakatli aloqalarning kamligi so'z ma'nosini tushunishni qiyinlashtiradi, shuningdek bolalarning nutqini shakllanishiga salbiy ta'sir etadi. Bolani bunday vazifalarni bajarishga maxsus o'rgatish zarur. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda korreksion, ta'limiy, tarbiyaviy ishlarni birgalikda olib boorish zarur.

Agar maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalar bog'langan nutqi maxsus rivojlantirilmasa, unda bola o'qish va yozishni muvafaqqiyatli o'zlashtira olmaydi maktabda savod o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Aqli zaif bolalar bog'langan nutqini rivojlantirishning mazmuni maxsus usul va vositalarini o'z ichiga qamrab oluvchi korreksion – rivojlantiruvchi ta'lim tizimi asosida samarali amalga oshirish mumkin. Aqli zaif maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarini yosh, kompensator va individual o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib bog'langan nutqini rivojlantirishga majmuaviy (kompleks) yondashuv maxsus maktabgacha ta'lim muassasi sharoitida korreksion – pedagogik jarayon samaradorligini oshirish imkonini beradi.

2.2. AQLI ZAIF BOLALARNI BOG'LANGAN NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA LOGOPEDIK - KORREKSION ISHLARNING BOSQICHLARI VA OMILLARI

Hozirgi kunda aqli zaif bolalar uchun maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarining keng tarmoqlari mavjud bo'ib bu toifadagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash maqsadida majmuaviy (kompleks) differensial logopedik ishlar samarali tashkil etilishi talab etiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shunday bog'langan nutqga ega bo'lishi kerakki, toki u bolaga tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish, maktabda samarali bilim olish, tashqaridan kelayotgan axborotni tushunish imkonini bersin. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bog'langan nutqini rivojlantirishning dolzarb vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Aqli zaif bolalar nutqining bog'langan

nutqini shakllantirishga qaratilgan korreksion – pedagogik ish tizimi muammosining o'ziga xosligi quyidagi yetakchi omillarni ham taqazo etadi:

- korreksion – logopedik ta'limni tashkil etishda bolaga u yoki bu funksiyalarning mavjud emasligi nuqtai nazaridan turib emas, balki unda saqlanib qolgan iqtidorlar, mavjud imkoniyatlar nuqtai nazaridan turib yondashish lozimki, toki manashularga asoslanib u yoki bu korreksion masalalarni hal qilish mumkin bo'lsin;

- aqli zaif bolalarning lug'at boyligini rivojlantirishda maxsus tanlab olingan vazifalar tizimi ulardagi qiziqishni rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi;

- aqli zaif bolalarning bog'langan nutqini rivojlantirish mashg'ulotlarda turli muloqot shakllari tashkil etilishi g'oyat muhim. Tarbiyaviy masalalarni amalga oshirishda bolalarning barcha ishlarining monitoringni olib borilishi (dastlabki joriy va yakuniy nazorat) ijobiy samara beradi. Bunda bolalarning natijalarini sifat jihatdan tavsiflashga ko'proq o'rin ajratish lozim;

- korreksion – logopedik faoliyatda bolalarda refleksiyaning yuzaga keltirish, o'z – o'zini korreksiya qilishga intilishga qaratilgan usullarni rejalashtirish va amalga oshirish zarur;

- aqli zaif bolalar bog'langan nutqini rivojlantirish mashg'ulotlarida amaliy yondashuv tomonidan turib amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir;

- aqli zaif bolalar bog'langan nutqini rivojlantirish mashg'ulotlarda o'quv – amaliy faoliyatining shakllanishi yondashuvga asoslanadi, tabaqaviy til tizimining turli darajadagi elementlarining o'zaro aloqasini hisobga oladi. Leksikani muvaffaqiyatli egallash uchun nutqning fonetik – fonematik tomonini ham aqli zaif bolalar lug'at boyligini rivojlantirishda uning nutqiy va individual rivojlanishini hisobga olinishi katta ahamiyatga ega;

- bolalar vazifalarni mustaqil bajarayotganlarida pedagog tomonidan ko'rsatiladigan yordam yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarning xarakteri va darajasidan kelib chiqadi. Bunda yordamning rag'batlantiruvchi (emotsional), yo'naltiruvchi va tashkillashtiruvchi turlari qo'llanadi.

Aqli zaif bolalarning bog'langan nutqini rivojlantirish 4 bosqichda olib borish tavsiya etiladi.

I bosqich:

- Asosiy diqqat bolalarda nutqiy bayonning motivatsion xissiy asoslarini va psixologik jarayonlar: idrok, xotira, diqqat, tafakkurni takomillashtirishga qaratiladi.

II bosqich – axborot – mazmunli:

- Nutq zahirasini leksik – semantic boyitish, bog'langan nutq tuzilishi haqidagi tasavvurlarini hamda uni tashkil etuvchi qoidalarni shakllantirish nutqdagi leksika – Grammatik shakllarni to'g'ri qo'llay olish. Ushbu bosqichida bolalarga tasvirlarni (rasm) ko'rib analiz qilish bo'yicha bilim berilgan. Bolalar rasmdagi bosh obyekt va boshqa predmetlarni ajratishga ularni bosh belgilaridan boshlabobyektning keyingi qismlarini qo'shimcha tasvirlab xarakterlashga o'rgatilgan. Turli mutaxassislar pedagog, o'qituvchi – logoped, pedagog – psixolog va tarbiyachilar bog'langan nutqni rivojlantiruvchi mahg'ulotlarida (lego – materiallaridan foydalanib qurish, piktogrammalar, ko'rgazmali modellar, masalalar yechimini ko'rib chiqish) korreksin vositalaridan foydalanadilar. Atrof olam bilan tanishtirish va nutqni rivojlantirish elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish qo'l mehnati, qurish va xk. mashg'ulotlarida olgan bilim ko'nikmalarini takomillashtirish mutaxassislarning vazifasiga kirgan.

III bosqich – amaliy:

- Bog'langan nutq iboralarini ketma – ket tasvirlay olish imkoniyatlarini shakllantirish. Ushbu bosqichda bolalarni gap tuzishga hamda syujetni ketma – ket ifodalashga o'rgatilgan. Bunda algoritm berilib u bir qancha kompozitsion qismlarni o'z ichiga olgan: tashkiliy qism, asosiy tuzilmasi, xulosalash. Avval algoritm tuzilgan: xikoyani qandaydir so'zdan boshlaymiz, xikoya qandaydir so'z bilan yakunlanadi. Bu bolalarning faol lug'atiga ular kam foydalanadigan sifat so'zlarini kiritish uchun zarur xisoblangan. Masalan rasmda o'rmon va taxtali uycha (izbushka) tasvirlangan. Ushbu xikoyani davom ettirish taklif etilgan: "O'rmonning chetida bir ... turgan edi", "taxtali uycha " (izba) so'zi oldindan

muxokama etilib uning sinonimlari – “uy”, “uycha” va boshqalar taklif etilgan. Bola xikoyaning tuzilishiga yaqin bo’lgan so’zni tanlay olishi mumkin edi. So’ngra sensor tomondan hamda kelasi xikoyani predmetli tuzilishini ifodalovchi algoritmlar qo’llanilgan. Bog’langan monologik o’z fikrini ifodalash ko’nikmalarini mashg’ulotlarda va erkin faoliyatida mashhur hamda teatrlashtirilgan o’yinlar, didaktik vositalar va xk. yordamida mustaxkamlangan.

IV bosqich – yakunlovchi:

- Bog’langan nutqidagi bog’langan iboralarni qurish bo’yicha olgan bilimlarini mukamallashtirish.

Shakllantiruvchi eksperiment tuzilmasi bir qancha ish yo’llanmalarini o’z ichiga olgan:

- maktabgacha muassasalarning barcha mutaxassislarning mashg’ulotlarida bog’langan nutqni rivojlantirish bo’yicha maxsus korreksion – pedagogik vositalarni qo’llash (pedagog, pedagog – psixolog, o’qituvchi – logoped, tabiyachilar);

- bolalarga to’g’ri va mantiqiy bog’lanma nutq iboralarini qurishga o’rgatish;

Aqli zaif bola xuddi boshqa bolalar kabi ona tilini (lug’at boyligi hamda Grammatik tuzilishini) turmushda, o’yinda va o’quv faoliyatida doimo amalga oshirib boradigan, atrofdagilar bilan nutqiy muloqot qilish jarayonida o’zlashtiradi. Bu yerda u o’zi eshitadigan nutq namunalari taqlid qiladi.

Aqli zaif bola maktab yoshida yetarlicha lug’at boyligiga ega bo’ladi va yetarli darajada so’zlarning Grammatik shakllarini biladi, bu sohada shu yoshdagi ko’zi ochiq bolaning rivojlanish darajasidan farq qilmaydi. Aytilganlarni hisobga olib ayniqsa kichik yoshda ko’zi ko’rmay qolganda sezish tajribasining sezilarli darajada sheklanganligi ongning meyordagi jarayoniga qarshilik ko’rsatadi: idrok etish, qiyoslash, konkret buyumlar va ularning siymolarini umumlashtirish.

I.M.Sechenevning fikricha faqatgina tanish buyumlar hamda, tanish hodisalar va munosabatlar orqali fikrlash mumkin; demak fikrlash uchun buyumlarni bir – biridan ajrata olish, ularni tanish so’ngra buyumlarda ularning

hossalari va o'zaro munosabatlarini farqlay olish malakasi avvaldan berilishi kerak, bularning hammasi dastlab sezgi orqali beriladi..

Muallif o'z fikrini quydagicha davom ettiradi: “Bola rivojlanishining birinchi davrida faqatgina buyumlarning individualligi berilgan archa, berilgan it va mushuk, keyinchalik u archa orqali daraxtlarning ma'lum turi haqida, umumanitlar va hk.

Haqida fikrlaydi”. Bu yerda fikrlash obyekti endi o'zining dastlabki timsolidan uzoqlashdi, bir-biriga yaqin buyumlarning timsoli yoki belgisiga aylanib, individuallining aqliy ifodasi bo'lmay qoldi. Obyektlarni o'xshashligiga ko'ra solishtirish sohasining kengayib borishi bilan fikrlar “o'simlik” “hayvon”ga aylanadi – guruhlar “archa” va “it”ga nisbatan ancha keng, biroq avvalgidek birlik (boshqacha bo'lsa ham) belgi orqali ifodalanadi”. Uslubiy tizimda maxsus mashqlar: til, nutq mashqlari, ijodiy mashqlar ishlab chiqldi, ularni bajarish bolalarni tabiiy muloqot sharoitlariga yaqinlashtiradi, quyidagi maxsus mashqlar tavsiya etiladi:

Aqli zaif bolalarni bog'langan nutqini shakllantirish bo'yicha qo'llaniladigan amaliy mashqlar:

Reproduktiv

1. Namuna asosida bajariladigan rasmlar asosida mashqlar tuzish.
2. Berilgan savollarga javob asosida berish. tuzish.
3. Tushirib qoldirilgan gap bo'lak – qarab kichiklari o'rnini to'ldirish. tuzish.
4. Tuzilma asosida bajariladigan

Rekonstruktiv

1. Berilgan gaplarda shaxsini o'zgartirish
2. Shaxsini o'zgartirib kichik hikoya tuzish
3. Ko'plikdan birlikka o'tkazish yoki aksincha
4. Gap turini o'zgartirish

Produktiv

1. Turkum hikoya
2. Mazmunli rasm hikoya
3. Sarlavhaga hikoya
4. Tavsiflash
5. Tasvirlash

mashqlar

Logoped o'quv yili mobaynida korreksion – pedagogik ish tizimini amalga oshirishda quydagilarni hisobga olish kerak: tarbiyalanuvchilarning nutqiy rivojlanish imkoniyatlarini bilish; korreksion – pedagogik ish jarayonida boshqa mutaxassislar bilan birgalik hamkorlikda ish olib boorish; ota – onalar bilan aloqada bo'lish; har bir mashg'ulot uchun kerakli jihozlarni tanlash.

2.3. AQLI ZAIF BOLALARNI BOG'LANGAN NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI.

Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida olib boriladigan korreksion ishlar bolaning nutqini va bilish jarayonlarini muvafaqqiyatli rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Olib boriladigan korreksion ishlar bolalar bog'langan nutqini bilish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilishi kerak, ya'ni logoped, tarbiyachi, pedagog bilan kompleksli ko'p qirrali ta'sir amalga oshirilishi lozim. Aynan shu jihat aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning o'ziga xos amalga oshirilishini ta'minlaydi va sensor nuqsonli bolalarning saqlangan analizatorlarining propriotseptiv sezgirligining, matorika faoliyatini faollashtirishni samarali amalga oshiradi.

Bo'glangan monologik mulohazalarni polinsensor rejalashtirishi bo'yicha ishni 4 davrda olib borish yaxshi samara beradi:

Tayyorlov davri – “ramziy”. Bir ramz orqali to'liq iboralarni almashtira olishga bolalarni o'rgatish uning vazifasi bo'lib xisoblanadi (masalan: “Kuz keldi”. Bola ushbu iborani ochib beruvchi mos rasmni tanlashi lozim. Uni oldida quyidagilar turadi: sariq barg, etik, qor parchasi, quyosh, qushcha. Shunday iqilib, mantiqiy fikrlash shakllantiriladi, hamda bola ramziy belgilar orqali iboralarning ma'nosini aniqlashga o'rganadi).

Birinchi davr – kelgusidagi xikoyaning tuzilishi haqidagi ma'lumot. Ushbu davrni amalga oshirishda bolalarning diqqati asos bo'la oladigan his organlariga yo'naltiriladi. Bu quyidagilar xisobiga amalga oshiriladi: a) qolgan sensor yo'llari qisman izolyatsiya qilishadi (masalan, mevalarni xidini xidlab turib, quloq va

ko'zlarni yumish); b) kuchli ta'sir etuvchilarni berish (masalan, tasvir shakli oddiy bo'lmasligi yoki tabiiy obyektни ko'rsatish, yorqin xislarni uyg'otuvchi qiziqarli sharoit (nokning sharbatini chiqarish); v) birinchi signali ma'lumotlarni so'z bilan ifodalash (masalan: "Ushbu nokning mazasini tatib ko'ramiz" (nok shirin): "Sharbatini siqamiz" (u suvli).

Ikkinchi davr. Olingan ma'lumotlarni ishlab chiqish tajriba jarayonida idrok etish hajm aniqlanadi, uni siymosini xotirasida ushlab turib uzata olishi, qayta ishlashda: bolaning sensor doirasi ustida korreksion ish olib boriladi. Kelasi xikoyaning sensor rejasi tuziladi.

Uchinchi davr. Tajriba ma'lumotlarini anglash va so'zlash tartibida (xarakatlarni ta'riflash va kuzatish, savollar yordamida o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, lug'atini nutqiy shtamplar orqali to'ldirish va obrazli ifodalash, lug'atini so'z tuzish orqali faollashtirish, so'zlarni o'zgartirish va leksika – Grammatik ish). Lekin mavzularga mos individual albomlar asosida etimologik sur'atlarni lug'atiga kiritish.

To'rtinchi davr. Yakunlangan tajribadagi ma'lumotlarni mustahkamlash jarayonida yaratilgan obrazni verbal vositalar yordamida bosqichma – bosqich qayta ishlash va mustahkamlash:

Pedagog sensor reja asosida hikoya namunasini beradi, tajriba paytida aytiladigan aloxida so'z, ibora, so'z birikmalarini aytmaydi. Qoldirib ketilgan joylarini bolalar to'ldiradi, hikoyani tuzish bo'yicha faol ishtiroki hamda uni to'liq obrazini passiv strukturada xotirasida uzoq vaqt ushlab ta'minlanadi; butin hikoya obrazlari bir vaqtning o'zida o'ng yarim sharda tasvirlanadi, ularning alohida qismlarining verbalizatsiyasi chap yarim shardagi nutqiy bo'limlarga o'tkazilib bog'lanma iboralarga tayyorlaydi;

Quyida maktabgacha ta'lim yoshidagi aqli zaif bolalar bog'langan nutqini shakllantirishga qaratilgan korreksion – pedagogik ish tizimi qo'llanilishi mumkin bo'lgan usullarni keltiramiz.

Quyidagi sxema asosida gap tuzing.



Tarvuz poliz ekini.

Ravshan tarvuz so'yib yedi.

Bolalar archani o'yinchoqlar bilan bezatdilar.

Yod oling.

Terak

Men terakman,

Osmon mening

Terakman.

Yelkamda.

Men hammaga

Men olamga

Kerakman.

Tirgakman.

Topishmoqlar javobini toping

- Zuv – zuv borar, zuv – zuv kelar,

Doston o'qir, g'alvir to'qir. (o'rgimchak)

- Yog'ochdan dastasi bor,

Temirdandir qirq tishi.

Ushlamasa duradgor,

Gumon uning qirqishi. (arra)

- Boshi taroq,

Dumi o'roq. (xo'roz)

Qishin yozin bir xil kiyimda. (archa)

Umumlashtiring va ortiqchasini ayting:

a) Rubob, childirma, nog'ora, karnay

- b) Arra, dutor, randa, o'roq
- c) Anor, archa, ayiq, arra
- d) Ruchka, daftar, kitob, rasm daftar
- e) Kartoshka, garimdori, o'rik, karam
- f) Mandarin, rediska, o'rik, anor

Tekshirish uchun so'zlar:

Umumlashtirish	Ortiqchasi
A) Musiqa asboblari	rubob
B) Ish qurollari	dutor
C) <<R>> tovushi	ayir
D) O'quv qurollari	kitob
E) Sabzavotlar	o'rik
F) Mevalar	rediska

<<Eslab qol>> o'yini:

Rom Rom Rom Rom

Arra Arra Arra Arra

Randa Randa Randa Randa

Daftar Daftar Daftar Daftar

Trolleybus Trolleybus

Tramvay

Iboralarni namunaga qarab o'zgartiring.

Men olma oldim

Biz olma oldik

Sen olma olding

Siz olma oldingiz

U olma oldi

Ular olma oldilar

Men qalamda yozdim

Biz qalamda yozdik

Sen qalamda yozding

Siz qalamda yozdingiz

U qalamda yozdi

Ular qalamda yozdilar

“MAZAYKA” STRATEGIYASI

MAQSADI:

Aqli zaif bolalarni bog'langan nutqini o'stirish;

Erkin fikrlashga, yuzma – yuz o'tirishga imkoniyat yaratish;

Qo'l barmoqlarining harakatlanishini rivojlantirish;

Bir – birini tinglashga va o'zaro suhbatlashishga o'rgatish;

MAZMUNI:

Bu strategiyada rasmlar, ertaklar yoki matnlar bo'laklarga bo'linib bolalar guruhi tomonidan bir butun ko'rinishga keltiriladi. Buning uchun aqli zaif bolalar kichik guruhlariga bo'linadilar.

QO'LLANILISHI:

Buning uchun ko'chma ma'noli va o'z ma'nosida kelgan so'zlarni alohida olinadi va konvertga solib har bir guruhga beriladi. Guruh qatnashchilari convert ichidagi so'zlarni yoyib so'ng bir chekkadan tartib bilan yig'ishlari kerak. Boshqa guruhlariga nisbatan ishni oldinroq tamomlagan guruhga quyidagi qo'shimcha vazifalarni berish mumkin.

1. Ko'chma ma'noli so'zlarni alohida ustun shaklida yig'ing;
2. O'z ma'nosida kelgan so'zlarni alohida ustun shaklida yig'ing;

Hamma vazifani bajarib bo'lgandan so'ng guruhlar nima ish bilan shug'ullanganliklari va nimalarni bilib olganliklari so'raladi va umumlashtiriladi.

Bu strategiya mashg'ulotning mustahkamlash bosqichida qo'lanadi. Tavsiya etilayotgan yangi texnologiyalarni mavzudan sinfdagi bolaning individual va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib o'zgartirish, soddalashtirish yoki murakkablashtirish mumkin. Buning uchun esa pedagogdan izlanuvchanlik, sinchkovlik va mahoratli bo'lish talab etiladi. Shuningdek ushbu texnologiyalarni

mashg'ulotlarda boshqa mavzularni o'tishda takrorlash va mustahkamlash mashg'ulotlarida ham qo'llash maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Nutq insonning nutqiy muloqat quroli hisoblanib nutq orqali kishi jamiyat hamda uning boshqa a'zolari bilan bog'lab turuvchi muhim rishtadir. Uning u yoki bu ko'rinishda mukammal shallanmaganligi shaxsning to'laqonli kamol topishiga to'sqinlik qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda muammoning bayon etilishi holatini o'rganish natijasida "Aqli zaif bolalarning bog'langan nutqini rivojlantirish bo'yicha korreksion ish" mavzusi yetarlicha o'rganilmagani aniqlandi.

Olib borilgan eksperimental ishlarimiz natijasida aqli zaif bolalarning aksariyatida tovushlarni tushirib qoldirish ularni noto'g'ri talaffuz etish, almashtirish holatlari, fonematik idrokning rivojlanmaganligi lug'at boyligi sust rivojlanganligi, ko'p holatlarda bir xil so'zlarni ko'p qo'llashlar uchrashi aniqlandi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi aqli zaif bolalar bog'langan nutqini shakllanganlik darajasini aniqlash bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajara olmasligini kamchilik sifatida o'rganmadik. Ma'lumki aqli zaiflik bolalar tomonidan bilish etalonlarni mustaqil egallash jarayonini qiyinlashtiradi. Shu bilan birga so'z boyligining kambag'alligi tufayli bolalar bir guruh so'zlardangina foydalanishi natijasida nutqning bir yoqlama, noaniq bo'lishga olib keladi.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda korreksion, ta'limiy, tarbiyaviy ishlarni birgalikda olib boorish zarur.

Nutqning normal rivojlanishida bolalar 5 yoshda turli xil murakkkab gap konstruktsiyalardan, yoyiq frazali nutqdan erkin foydalana oladilar. Ular etarli darajada lug'at boyligiga ega bo'ladilar. Bu vaqtga kelib to'g'ri talaffuz to'la shakllangan, tovushning analiz va sintez qila olishga bolalar tayyor bo'ladilar.

Ammo hamma vaqt ham bu jarayonlar muvofaqiyatli kechmaydi: ba'zi bolalar normal eshitish va aqliy faoliyatga ega bo'lsalarda tilning har bir komponentlari, ya'ni fonetik, leksik va grammatik shakillanishida keskin orqada qolish hollari kuzatiladi. Bu nutq buzulishini birinchi bo'lib R.E.Levina tomonidan aniqlangan va nutqning umumiy rivojlanmaganligi deb belgilangan.

Shuni ta'kidlash kerak-ki, har qanday nutq buzulishlarini tushunish uchun bola nutqning normal rivojlanish yo'llarini, bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini, nutqning muvofaqiyatli shakillanishida katta rol o'ynovchi sharoitni bilish kerak. Bundan tashqari bola nutqi rivojlanishining har bir davrini bilish zarurdir. Bu esa u yoki bu kamchiliklarni o'z vaqtida sezish va aniqlash uchun kerak bo'ladi.

Yuqoridagi xulosalarga muvofiq ravishda quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish.
- Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan sayr ekskursiya va turli muzeylarda suhbatlarni uyushtirish maqsadga muvofiqdir.
- Bolalar bilan turli mavzulardagi o'yinlarni tashkil qilish mumkin.
- Nutqni o'stirish bo'yicha mashg'ulotlarni taxlil qilish.
- Irodaviy zo'r berishini talab qiluvchi topshiriqlarni mashg'ulotlar jarayonida berib borish.
- Mashg'ulotlar jarayonida bolaning har bir hatti xarakatlarni rag'batlantirib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston respublikasida "Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi" T. 1997
2. O'zbekiston respublikasi "Ta'lim to'g'risi"dagi qonuni. T. 1992
3. Karimov.I.A "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch". T "O'zbekiston" 2008
4. Karimov.I.A "Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" T "O'zbekiston" 2010
5. I.A.Karimov "Jaxon ma'naviy iqtisodiy inqiroz" O'zbekiston
6. Aytmetova.S.Sh "Oligofrenopedagogika" T. 1984
7. Ashrapova.T, Odilova.M "Ona tili metodikasi" T. 1984
8. Abdullayeva.K "Savod o'rgatish" T. O'qituvchi 1996
9. Aksyonova.A.K "Metodika obucheniya russkomu yaziku vo vspomogatelnoy shkole" M. Prosvesheniye 2004
10. Axmedova.D "Berdiyeva.Sh, Nurkeldiyeva.D. I dr. Analiz sotsialnoy zashishennosti detey s osobimi potrebnostyami v respublike uzbekistan". Tashkent, Izd – vo "Fan" AN RUz
11. "Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchiar ta'lim olayotgan yordamchi mehnat ta'limi maktabi uchun yangi tahrirdagi ona tili, o'qish, nutq o'stirish o'quv dasturi (1 – 9 sinflar)" tuzuvchi Raxmanova.V.S 2007
12. Ayupova.M.Y Logopediya "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti" T. 2007
13. Baudish.V "Sushnost korreksionno – vospitatelnoy raboti vo vspomogatelnoy shkole" J.Defektologiya 2002
14. "Bolalarni maktabga o'qishga tayyorlash" To'plam Nizomiy nomli TDPU. T. 1997

15. “Boshlang’ich va defektologiya ta’limining samaradorligini oshirish masalalari (ilmiy metodik maqolalar to’plami)”. T. 2000
16. Qosimova.K “Boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitish metodikasi”. T. 1985
17. Vigotskiy.L.S “Voobrajeniyе I tvorchestvo v detskom vozraste”. M. Prosvesheniye 1991
18. V.V.Voronkova “Obucheniye gramote I pravopisaniyu v 1 – 4 klassax vspomogatelnoy shkoli”. Moskva, Prosvesheniye 1988
19. Dulnev.G.M “Uchebno – vospitatelnaya rabota vo vspomogatelnoy shkole” M. 1982
20. “Obucheniye uchashixsya 1 – 4 klassov vo vspomogatelnoy shkole” Podredaksiyey Petrovoy V.G. Moskva, Prosvesheniye 1982
21. Leontyev.A.N “Izbranniye psixologicheskiye proizvedeniya” M, Pedagogika 1983
22. Mo’minova.L.R, Shomaxmudova.R.Sh “Imkoniyati cheklangan bolalarni individual – korreksion rivojlantirish dasturining metodik asoslari” T. 2007
23. Raxmanova.V.S “Yordamchi maktabda savod o’rgatish” T. 1988
24. Raxmanova.V.S “Ona tili o’qitish maxsus metodikasi” Moliya – iqtisod T. 2007
25. Po’latova.F.M “Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika)” T. 2007
26. Smirnova.A.N “Korreksionno – vospitatelnaya rabota uchitelya vspomogatelnoy shkoli” M. 1992
27. “Boshlang’ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta’lim standarti J” Boshlang’ich ta’lim 2006
28. Nurkeldiyeva.D.A “Maktabgacha oligofrenopedagogika” T. 2001 Nizomiy nomli TDPU
29. Zamskiy.X.S “Umstvenno otstaliye deti” Moskva 1995
30. Mamedov.K, Shoumarov.G “Aqli zaif bolalar psixologiyasi” Toshkent 1994